


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

Raximova Munira Xurmat qizi

5120100 – filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi


bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: Erkin Samandar she'riyati leksikasining ma'noviy-uslubiy xususiyatlari

Ilmiy rahbar

f.f.n., dots. A.Primov



Urganch – 2016

MUNDARIJA

KIRISH

I BOB. ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATI LEKSIKASINING MA'NOVIY XUSUSIYATLARI.....8

1.1.-§. Erkin Samandarning hayoti va ijodiy faoliyati haqida.....8-14

1.2.-§ Erkin Samandar she'riyati leksikasining o'ziga xos xususiyatlari va uni o'rganish masalasi.....14-32

II BOB. ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATI LEKSIKASINING USLUBIY XUSUSIYATLARI.....33

2.1.-§. Erkin Samandar she'riyatida takror va boshqa vositalarning qo'llanishi.....33-49

2.2.-§. Erkin Samandar she'rlarida okkazonalizmlarning ishlatilishi.....49-50

2.3.-§. Erkin Samandar she'riyati tilida she`vaga xos so'zlar.....51-54

XULOSA.....55-57

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI58-62

ILOVALAR.....

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Badiiy asarning bosh unsuri soʻz, umuman, til ekan, ana shu asarning chinakam sanʼat darajasiga koʻtarila olishida uning tili, muallifning til vositalarini qay darajada qoʻllay olishi asosiy omildir. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini oʻrganish, birinchidan, adibning mahoratini oʻrganish, shu bilan birga, tilimiz rivojiga uning asarlari tili taʼsirini, tadqiqotning esa tilshunosligimiz taraqqiyotiga qay darajada taʼsir koʻrsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

Erkin Samandar sheʼriyati XX asrning 2-yarmi adabiyotida muhim voqea boʻlgan edi. Respublika matbuoti sahifalarida Erkin Samandar hayoti va ijodi haqida talaygina maqolalar chop etildi. Eʼlon qilingan maqolalarning aksariyati shoirning yubileylariga bagʻishlangan boʻlib, ularni hamkasblari, muxlislarining chuqur ehtiromi sifatida baholash mumkin. Shoir ijodini badiiy va lisoniy jihatdan chuqur tahlil qilib beruvchi ilmiy tadqiqotlar esa sanoqlidir.

Erkin Samandar oʻziga xos shoirdir. Uning sheʼrlari xalqona ohanglarda bitilganligi bilan boshqa shoirlar ijodidan farqlanadi. Ana shu oʻziga xoslikni taʼminlovchi badiiy til vositalarini chuqur oʻrganish va tadqiq etish lozim.

Umuman, Erkin Samandarov hozirgi oʻzbek sheʼriyatida uslubiy izlanishlar olib borayotgan ijodkorlardan biridir. Erkin Samandarov sheʼrlaridagi lirik qahramonlarning oʻziga xos maʼnaviy olami qanday talqin etilganligi, shoir asarlarida hayotning qaysi jihatlarini tasvirlashga moyillik mavjudligi hamda umuminsoniy, milliy-maʼnaviy qadriyatlarni oʻquvchi shuuriga koʻchirishning badiiy mezonlarini oydinlashtirganligini aniqlashda uning soʻz qoʻllash, til mahoratini oʻrganish masalasi mazkur bitiruv-malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilashga yordam beradi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Keyingi yillarda badiiy asar tili, badiiy asar nutqining individual xususiyatlarini oʻrganish hamda badiiy asarni lingvopoetik tadqiq qilishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Adibning soʻz tanlashdagi va qoʻllashdagi mahoratining tadqiq etilishi tilshunosligimiz rivojida oʻziga xos ahamiyatga ega. Chunki aynan mana shu jihat

orqali yozuvchining individual uslubi yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun tilshunosligimizda ijodkor badiiy nutqining o‘ziga xosligi, uning til vositalaridan foydalanishi kabi jihatlar bosh mavzu darajasiga ko‘tarilib bormoqda. Oxirgi o‘n yil ichida Sh.Doniyorov, R.Normurodov², M.Yo‘ldoshev³, G.Keldiyorova⁴, D.Ne‘matova⁵, Y.Sayidov⁶, F.Bobojonov⁷, G.Muhammadjonova⁸, S.Boymirzaeva⁹, A.Sabirdinov¹⁰, L.Jalolova¹¹, M.Qosimova¹²lar tomonidan o‘zbek adiblaridan ayrimlari ijodining lisoniy tadqiq etilishi ham buning dalilidir. Tadqiqotlarning katta qismi nasriy asarlar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bu ishlarning yuqori ilmiy saviyasini inkor etmagan holda, nazmiy asarlar lingvopoetikasiga ham e‘tiborni kuchaytirish badiiy nutq lisoniy tarkibini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlamoq joizdir.

G.Muhammadjonova tomonidan o‘tgan asrning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida adabiyotimizga kirib kelgan Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A‘zam O‘ktam, Iqbol Mnrzo kabi shoirlar ijodi lingvopoetik tadqiq etildi. Lekin quyida ko‘rsatilgan sabablar Erkin Samandar ijodi lingvopoetik tadqiqot uchun alohida obyekt bo‘la olishini ko‘rsatadi:

Birinchidan, G.Muhammadjonovanning ilmiy ishida alohida bir ijodkorga emas, balki alohida bir davrga, ya‘ni tariximizda buyuk burilish yasagan mustaqillik arafasidagi hamda uning dastlabki yillarini qamrab oluvchi, yangi ijtimoiy siyosiy fikrlari shakllana boshlagan qalamkashlarning adabiyotimizga kirib kelishi bilan yangicha qarashlar o‘z ifodasini topayotgan davrga alohida e‘tibor berilgan.¹

Ikkinchidan, yuqorida ko‘rsatilgan ilmiy ishda Erkin Samandar she‘riyati u bilan bir davrda ijod qilgan bir necha shoir (Shavkat Rahmon, Usmon Azim, A‘zam, O‘ktam, Iqbol Mirzo) asarlariga parallel ravishda tahlil qilinmadi. Bu esa ma‘lum ma’noda Erkin Samandar ijodini o‘rganishni cheklaydi. Ilmiy ishda keltirilgan misollarning ko‘pchilik qismi sanab o‘tilgan ijodkorlarning she‘rlaridan keltiriladi. Bu tabiiy, albatta. Chunki Erkin Samandar ijodining eng avj nuqtasi 90-yillarning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi.

¹ Muhammadjonova G. 80- yillar oxiri 90- yillar boshlari o‘zbek she‘riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. nomzodi... dis. - T., 2003. -136 b.

Mazkur Bitiruv malakaviy ishda she'riy nutq individualligining lingvistik xususiyatlarini yuzaga chiqaruvchi omillar Erkin Samandarning antiteza, sinonimlar, maqol va iboralar, takror, okkazionalizmlarni qo'llashi doirasida tadqiq etildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'rganilayotgan "O'zbek adabiy tilining shakllanishida Xorazm shevalarining o'rni" mavzusi tarkibiga kiradi.

Tadqiqot maqsadi shoir she'rlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilib, ijodkorning tilning badiiy tasvir vositalaridan, shuningdek, umuman tildan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali uning o'zbek adabiy tili rivojidagi o'rnini belgilashdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Erkin Samandar she'riyati leksikasining ma'naviy-uslubiy xususiyatlarini o'rganishning dolzarbligini asoslash;
- shoir ijodi tilining o'zbek tilshunosligida o'rganilish holatini ilmiy tanqidiy baholash;
- Erkin Samandar she'rlarining she'riyati leksikasining ma'naviy-uslubiy xususiyatlarini lingvopoetika bilan aloqadorlikda tahlil etish;
- Erkin Samandar she'riyatida qo'llangan maqol va iboralarni belgilash va ularni lingvopoetik jihatdan tahlil etish;
- Erkin Samandar she'rlarida badiiy takrorning o'rnini belgilash, shoirning takrordan foydalanishdagi o'ziga xos jihatlarni ochib berish;
- Erkin Samandar she'rlaridagi okkazionalizmlarni belgilash va ularni tahlil etish;
- shoirning o'zbek she'riyatida tutgan o'rnini, uning o'zbek tiliga, undan foydalanishga bo'lgan munosabatini belgilash.

Tadqiqot obyekti va predmeti sifatida Erkin Samandar she'riyati olindi. Erkin Samandar she'rlari 1960-yildan 2016-yilgacha nashr etilib kelayotgan bo'lsa-da, "Sevgi fasllari" saylanmasi shoir ijodining eng ko'p qismini qamrab olganligi sababli,

ilmiy tahlil uchun asos qilib mana shu nashr tanlandi. Bundan tashqari, ayrim misollar boshqa to'plamlardan ham olindi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Tadqiqotning metodologik asosini falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari tashkil qiladi. Asosan, lingvopoetik, uslubiy va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar. Erkin Samandar she'riyatida so'z va uning ma'nolari aksar hollarda konnotativ xususiyatga egaligi bilan ajralib turishini, shoir badiiy uslubga xos so'zlarni ularning ma'no qirralarini chuqur his qilgan holda qo'llash bilan birga, antonim va sinonim so'zlarning lingvopoetik xususiyatlaridan ham mohirona foydalana olganligini ko'rsatish. Shuningdek, Erkin Samandar she'rlarida muayyan so'zlarning pragmatik ma'no qirralari ham kashf etilganini tahlil etish.

1. Shoir ijodida maqol va iboralarning she'riyat yoki uslubiyat talabi bilan ijodiy tarzda qo'llanganligi she'rda o'ynoqilik, ta'sirchanlik, falsafiylik kabi xususiyatlarni ta'minlaganligini belgilash. Xalq maqollari va iboralaridan ayrimlarining emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi kuchaytirilganligi tasviriylilik va obrazlilikni yaratish maqsadiga xizmat qildirilganligini ko'rsatish.

2. Ijodkor she'rlarida yetakchi sintaktik figura bo'lgan takror badiiy mazmunni ta'kidlash, iltimos, so'roq ma'nolarini kuchaytirish, darajalash, sanash, mubolag'ani bo'rttirish, tasvirni teranlashtirish, qiyoslash, emotsionallikni oshirish kabi maqsadlar uchun qo'llanganligi orqali bu usulning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash. Takror asosida anafora, epifora, takrir, mukarrar, tardi aks va boshqa turli badiiy san'atlarning vujudga kelishini ko'rsatish.

3. Til jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi ekan, ma'lum ma'noda Erkin Samandar she'rlari ham hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma'no qirralarini namoyish eta olganligi; bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so'zni mohirona qo'llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali uning she'rlarida o'z aksini topganligi; xususan, shoir she'rlaridagi yangi yasalmalar o'zining g'ayriodatiyligidan tashqari, obrazlilikni yaqqol ta'minlaganligini belgilash.

Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi quyidagilardan iborat:

- Erkin Samandar she'riyati o'zbek tilshunosligida birinchi marta lingvopoetik jihatdan tahlil qilindi;
- shoirning antiteza va sinonimik imkoniyatlardan lingvopoetik vosita sifatida foydalanish mahorati ko'rsatib berildi;
- ijodkorning xalq maqollari va iboralardan ijodiy tarzda foydalanish, ayrim o'rinlarda ularga yangi ma'no yuklay olish san'ati til nuqtayi nazaridan talqin qilindi;
- shoirning so'z takroridan unumli foydalanishi, bu tasvir vositasining semantik, uslubiy imkoniyatlarini qo'llaganligi tahlil qilindi;
- o'zbek tili ichki imkoniyatlarining kengligi okkazionalizmlarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'lishi Erkin Samandar she'rlaridagi individual yasalmalarni tahlil qilish orqali asoslab berildi, okkazionalizmlarning shoir ijodida tutgan o'rni belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda e'tibor qaratilgan uslubiy vositalar, shuningdek, shoir she'rlari lingvopoetikasi tadqiqi usuli boshqa ijodkorlar asarlarini tahlil qilish va ular mahoratini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Bitiruv malakaviy ish natijalaridan «Stilistika» bo'yicha nazariy kurs o'qishda, «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» hamda «Lingvopoetika», «Uslubiy vositalar», «Shoirning badiiy mahorati» kabi maxsus kurslarni o'qitishda; darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy risolalar yaratishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, ikkita bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 64 sahifani tashkil etadi.

I BOB. ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATI LEKSIKASINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

1.1-§. Erkin Samandar hayoti va ijodiy faoliyati haqida

Shoir, nosir va dramaturg Erkin Samandar televideniya adabiy-dramatik ko'rsatuvlar bo'limida ishladi, keyinchalik gazetada muharrirlik qildi. U bir qancha she'riy to'plamlar, asarlar va ocherklar, romanlar va qo'shiqlar yaratdi. Uning turkum she'rlarida jahongashta shoirning hayot va odamlar haqidagi falsafiy mushohadalari badiiy in'ikosini topgan.

Shoir, nosir va dramaturg Erkin Samandar 1935-yili Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Navxos qishlog'ida dunyoga kelgan. U tengdoshlari kabi o'rta maktabni tugatgach, Xorazm davlat pedagogika institutiga o'qishga kirib, uni 1957-yilda tugatadi. So'ngra O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qishni davom ettiradi. «Xorazm haqiqati» gazetasida hamda viloyatdagi turli muassasalarda mas'ul vazifalarni bajaradi. 70-yillar oxirida Toshkentga ishga taklif etilib, O'zbekiston televideniyesida adabiy-dramatik ko'rsatuvlar bo'limining boshlig'i lavozimida xizmat qiladi. So'ng yana Xorazmga qaytib, viloyat gazetasiga muharrirlik qiladi. Oradan ko'p o'tmay, yana Toshkentga kelib, Respublika Vazirlar Mahkamasi Raisining o'rinbosari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Erkin Samandar 50-yillarning o'rtalarida adabiyotimizning qutlug' dargohiga kirib kelgan. Uning birinchi she'riy to'plami «Amu jilolari» nomi bilan 1966-yilda chop etilgan. So'ngra «Osmon to'la nur», «Dunyoning yoshligi» (1970), «Sevgi fasllari» (1973), «Vafo degan gavhar» (1975), «Mening yigit vaqtim» (1979), «Qabul soatlari» (1980), «Sohildagi bolalar» (1982), «Saylanma», «Yurakka yo'l» kabi o'ndan ortiq she'riy majmualarini e'lon qilgan. Mazkur to'plamlarga kirgan deyarli barcha asarlarda yaxshi odamlar, go'zal tabiat, insoniy muhabbat, sevgi va vafo, mehnat va hayot tashvishlari, armonlar-u gumonlar, qisqasi, chuqur ma'naviyat ildizlarini ochishga intilish seziladi. U yaratgan yuzdan ortiq qo'shiqlar tinglovchilar qalbida muhrlanib qolgan. Uning «Fransiya daftari», «To'qson daqiqa» (sakkizliklar), «Shom qo'shiqlari» kabi turkum she'rlarida jahongashta shoirning hayot va odamlar haqidagi falsafiy

mushohadalari badiiy in'ikosini topgan. Erkin Samandarning «Bahor fasli, yor vasli» deb nomlangan asari to'qsonta sakkizlikdan tarkib topgan. Shuningdek, u dramaturg sifatida «Javohir», «Ajdodlar qilichi», «Olma pishganda galing» kabi sahna asarlarini yaratgan. Ular Ogahiy nomli teatr sahnasida hamon qo'yilib keladi. Erkin Samandar ko'plab publitsistik asarlar va ocherklarning ham muallifidir. «Daryosini yo'qotgan qirg'oq» (1989) romani uning yetuk romannavis sifatida ham shakllanayotganidan darak beradi. Unda tabiat, Orol ekologiyasigina emas, eng muhimi, ma'naviyat ekologiyasi sohasida sodir bo'layotgan qashshoqlik, fojia va ularning ildizlari, oqibatlarini yechish, muhabbat bilan qabohat o'rtasidagi kurash o'z ifodasini topgan. Chin muhabbat, chin do'stlik hamisha og'ir bo'lsa ham, qabohat, xoinlik, xiyonatdan ustun kelishi umumlashtirilgan. Xuddi shu g'oya E.Samandarning «Tangri qudug'i» (1996) romanida tarixiy zaminda o'zgacha material, o'zga qahramonlar harakati va xarakterlari orqali umumlashtiriladi. Muallif qayd etganidek, mazkur asar «...inson haqida, uning taqdiri, muhabbati, nafrati, ushalgan, ushalmagan orzu-umidlari haqida»dir. Ushbu asar tarixda mashhur bo'lgan va madaniyatimizga «Shajarayi turk» asarini bergan Abulg'azi Bahodirxon va u yashab, ijod etgan davr voqealari tasvirlanadi.

Erkin Samandar muhabbat va sadoqat, mehr-u vafo, sehrGAR ishq kuychisi. Uning yuzdan ortiq she'r va g'azallariga kuylar bastalangan. Qo'shiqlarini mashhur san'atkorlar Otajon Xudayshukurov, Ortiq Otajonov, Olmaxon Hayitova, G'ulomjon Yoqubov, Karimboy Rahmonov, Kumush Razzoqova, Sultonposhsha Udaeva va boshqalar, estrada san'ati namoyondalari ijro etishadi.

Xalq ijodiga yaqinlik, ayniqsa, Xorazm qo'shiqchilik san'atidagi o'ziga xos jo'shqinlik, talaffuz ohangidagi dilbarlikni topib qalam tebratish - shoir ijodiy uslubining bosh yo'nalishidir.

Erkin Samandar diyor va yor, sevgi va muhabbat, vafo va sadoqat, do'stlik va qardoshlik haqidagi el suygan necha o'nlab qo'shiqlari bilan chindan ham o'zbek san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan sermahsul, barakali ijodkorlarimizdan biridir.

Bugun uning nomi, ijodi, dilnavoz qo'shiqlari jannatmonand diyorimiz sarhadlaridan ham oshib, boshqa turkiyzabon xalqlar qalbidan ham joy olib ulgurdi.

Darvoqe, olamga yashillik sepi yoyilib, tabiatga ham, ko'ngillarga ham o'zgacha oshuftalik, zavq-surur, ishtiyoq va ilhom baxsh etayotgan ayni pallada ustoz umrining donishmandlik fasliga qadam qo'yib, o'zining yetmish beshinchi bahorini qarshi olmoqdalar.

Bunday qutlug' damlarda odam bolasi hayot karvoni etgan tabarruk manzilda bir qur nafas rostlab, ortga bir qayrilib, o'tgan yo'llarga nazar tashlashni xohlab qolishi tabiiy... Chunki bu manzillarda umr mazmuni mujassam... bu yo'llar sinoati butun bir hayot solnomasidir.

Bo'lg'usi shoirning qoniga, joniga shu zaminda tug'ilib, insoniyat tafakkuri osmonining so'nmas yulduzlariga aylangan buyuk xorazmiylar ruhi poklaridan bir xosiyat engandirkim, o'quvchilik paytidanoq qo'lidan qalam tushmadi. O'rta maktabni tamomlab, katta adabiyot o'zani - poytaxtga umid bilan oshiqdi. Urganch davlat universiteti filologiya fakultetida tahsil olar ekan, o'qish, izlanish barobarida katta adabiy davralar iste'dodini charxladi. Yozganlari matbuot yuzini ko'ra boshladi... Shu tariqa o'tgan asrning oltmishinchi yillarida Xorazm adabiy muhitida Erkin Samandar nomi paydo bo'ldi.

Shoirning aytishicha, umrining roppa-rosa qirq yili so'z tanish, izlash va so'z topish, soz tinglash, so'z axtarish bilan o'tgan. O'ziga notanish bo'lgan so'zning mag'zini chaqqanida, ohorli so'z nodir qushdek oq qog'ozga qo'nib, misralarga jon ato etganida, ulovda yoqimli soz ketiga tushib, sehrli gulshanlarni sayr aylaganida, har gul, har yaproqda go'zallik kashf etganida naqadar quvonganlarini bir o'zining ko'ngli biladi.

E.Samandar shunday yozadi: "Urush yillari edi. Hamma qatori yetar-yetmaschilikda kun kechirardik. Choy ichsa, bolaning yuzi sariq bo'ladi deb (keyinchalik bilsam choy yo'qligidan ekan) bizga faqat sovuq suv berishardi. Ertalab yarimta zog'ora, bir sarxum suv bilan nonushta qilib, maktabga ketardim. Bora-bora zog'ora ham ko'zga to'tiyo bo'lib qoldi.

Dadamizni bir kuni ikki yonidan suyak uyga olib kelishdi. Enam, oyimlar dod solib dadam tomon yugurishdi. Dadamning oyoqlari mashina tagida qolib, singan ekan. Doktor kelib gips qildi-da, qirq kun qimirlamay yotasiz, deb ketdi. Tashvish ustiga tashvish paydo bo'ldi. Balog'atga yetganlar urushga ketgach, biz bolalar qariyalar bilan yetti jon bitta kichik uyda qolgan edik. Endi ro'zg'orda ishga yaroqli biror odam yo'q edi. Men o'shanda ikkinchi sinfda o'qir edim. Ertalab turib, qo'l-yuzimni yuvgach, yarimta zog'oraga ko'z tikmay (uyda non qolmaganligini sezib) maktabga ketardim. Ukalarimning ahvoli ham shu edi". Shoirning yoshligi shunday sharoitda o'tgan edi.

Davrning dolzarb muammolarini matbuotga olib chiqish, shu orqali davr kishilarining ruhiyatiga malham bo'lish, zamondoshlarining mehnatdagi yutuqlarini qalamga olish jurnalistik faoliyatining bosh mezoniga aylandi.

Erkin Samandar publitsistika, she'riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyoti sohasida sermahsul ijod qilish bilan birga voqea adabiy harakatchiligini yuksak pog'onaga ko'tarishga, viloyatda talantli iste'dodlarning kamol topishiga katta hissa qo'shdi.

Erkin Samandar nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham taniqli shoirdir. Ayniqsa, Istiqlol yillarida shoir iqtidorining yangi qirralari keng namoyon bo'ldi. Bu davrda uning o'zbek mumtoz adabiyoti ulug' namoyandalari an'alarini davom ettirib yaratgan g'azallari, Navoiy va Ogahiy g'azallariga bog'lagan yuzdan oshiq muxammaslari, vatanparvarlik, xalqparvarlik, yuksak insoniy fazilatlar, odamiylik, ishq-muhabbat, vafo va sadoqat tuyg'ulari tarannum etilgan she'rlari, zamonamiz kishilarining jo'shqin mehnati va fidoyiligi ulug'langan ocherk va dostonlari, bolalar adabiyotining go'zal namunasi bo'lgan she'r va hikoyalari jamlangan 21 ta kitobi chop etilganligining o'zi ustoz qalamining naqadar purziyoligi, qalbining bedorligi, odamlarga aytar so'zining mo'lligidan nishonadir.

Erkin Samandar faoliyati katta shoir va adiblar, adabiyotshunos olimlarimizning xolis va samimiy bahosi, lutf-u e'tirofiga musharraf bo'lgan barakali ijoddur. Haqiqiy shoir qalbi – o'chmas olov, deyдилar. U bir marta

yonadida, avlodlar qalbiga payvand bo‘lib mangu alangaga aylanadi!

Erkin Samandar qalbida olovlangan she‘r ishqi bugun ham o‘zgacha yolqin bilan lovillab, gurillab turibdi. Shu olov shashti bilan har tong yangi-yangi nazm durdonalari qog‘ozga to‘kilmoqda.

Zero, ustoz hali ham qizg‘in ijod ustida. Ayni damda faqat Vatan mavzusida yozilgan to‘rt yuzdan ziyod she‘rlarni o‘z ichiga olgan yangi to‘plami nashrga tayyor. “Yana o‘ttiz-qirq kitob bo‘lgulik yozganlarim turibdi”, -deydilar kamtarinlik bilan...

Biz ham shoirning ilhom-u ishtiyoqi aslo so‘nmasligini, o‘zi hamisha ta’kidlab yurganlaridek, qalbida muhabbat, she‘riyat bulbullari chax-chax urib turishini tilab, o‘zi yozgan satrlarni uning umr yo‘llariga qiyos tarzida keltirishni joiz deb bildik:

*Yoshlik ganimatdir,
Mas’ul bo‘l mudom,
Befoyda o‘tmasin
Hatto bir oni.
O‘zing yoshligingga
Qaytolmasang ham,
Yoshligiga qaytar dunyoni.*

Erkin Samandar ijodi bo‘yicha adabiyotshunoslikda bir necha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin tilshunoslar tomonidan shoir she‘riyati tilining lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari deyarli o‘rganilmagan.

U.Normatov o‘zining "Romanchiligimizning yangi ufqlari" degan maqolasida "Tangri qudug‘i" romani haqida fikr yuritar ekan, yozuvchining o‘ziga xos individual uslubini kuzatish asosida chiqargan xulosalarini shunday umumlashtiradi: "...yozuvchi tarixiy shaxslar hayotini, tarix dramalarini butun dahshatlari bilan bor holicha gavdalantirgan. Bu asar tarixiy roman janri katta ma’rifiy qimmatga ega ekanini, "xalqning chinakam tarixini tarixchilar emas, adiblar yaratadi" degan naqlning to‘g‘riligini yana bir karra tasdiqlaydi".

Professor H.Abdullayevning "Xorazm adiblari" to‘plamida adib ijodi

xususida quyidagicha fikrlar keltirgan: "E.Samandar ijodidagi yangi bosqichda uning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" va "Tangri qudug'i" romanlari yaratildi. Birinchi roman zamonaviy mavzuda bo'lib, inson va tabiat munosabatlari, muhabbat va qabohat muammolaridan bahs etsa, ikkinchi romanda XVI-XVII asrlarda Xorazm xonligida kechgan tarixiy voqealar qiziqarli hikoya qilinadi. E.Samandarovning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romani adabiyotshunos olim X.Karimovning "Hozirgi o'zbek nasrida hayot haqiqati va inson konsepsiyasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida baholi qudrat tahlil qilingan. Mazkur dissertatsiyaning avtoreferatida olim roman to'g'risida quyidagicha fikrlar bildirgan: "E.Samandarning "Daryosini yo'qotgan qirg'oq" romanida jamiyat illatlari – tabiat muvozanatini buzishlik inson qadrining yerga urilishi, ahloqsizlik rahbarlarning byurokratik munosabatlari keng epik ko'lamda ochib berilgan". Bundan tashqari, Asror Samad "Tangri qudug'i" romaniga yozgan so'zboshisida adib ijodining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida iliq mehr bilan fikr bildirgan: "E.Samandar Xorazm kuychisi bo'lib namoyon bo'lgan. Adib Xorazmning go'zal bog'lari, latofatli qizlari, cho'ng yigitlari timsolida O'zbekistonni madh etadi. Xorazm tashvishlari orqali butun o'zbeklarning dardini kuylaydi. U aslida o'zi tug'ilib o'sgan vohani beaded sevadi". Mazkur jumlada E.Samandarov asarlarida Xorazm va xorazmliklar alohida bir mehr bilan tasvirlanganligiga ishora qilingan. Bu xususiyat uning she'rlarida ham ko'zga tashlanadi.

She'riyatdagi tub yangilanishlar E.Samandarov singari shakllangan tasvir uslubini o'zgartirmagan adiblar ijodida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'lyapti. Bu haqida adabiyotshunos olim Q.Yo'ldoshev o'z maqolasida fikr bildirib o'tgan: "U qadim tarix yoki bugungi kunda bo'lib o'tgan muhim voqealarnigina emas, ana shu voqealarda ishtirok etgan odamlarni ko'ngil tebranishlari va ruhiy iztiroblarini tasvirlashga ahamiyat bergan. U yaratgan asarlarda odam tarixiy hodisalarga qilingan ilova emas, balki o'sha hodisalarning ishtirokchisi bo'lgan betakror va o'ziga xos taqdir egasi sifatida ko'rsatilgan".

Shuningdek N.Karimov, N.Rahimjonov va I.Yoqubovlar o'zlarining maqolalarida E.Samandarov ijodining ayrim qirralari to'g'risida ma'lumot

berishga muvaffaq bo'lganlar.

Ko'rinadiki, qayd etilgan maqola va risolalarda E.Samandarov ijodining muayyan qismi haqida umumiy fikrlar aks etgan bo'lib, uning til mahorati yaxlit va atroflicha tadqiq etish masalasiga qo'l urilmagan. Shularni hisobga olib, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda shoirning she'riy asarlarining til xususiyatlarini nisbatan kengroq yo'nalishda o'rganishga jazm etdik.

1.2. Erkin Samandar she'riyati leksikasini o'rganish masalasi, o'ziga xos xususiyatlari

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg'un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan. Badiiy matn, ma'lumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. So'zlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intonasion birliklarning qo'llanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emosional bo'yoqdor so'zlarga, sheva so'zlariga, tarixiy va arxaik so'zlarga, jargon va argolarga, ko'chma ma'noli so'zlarga, ma'nodosh, shakldosh, o'xshash talaffuzli va zid ma'noli so'zlarga, shuningdek ibora, maqol-matal va aforizm kabi birliklarga keng o'rin beriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday matn o'ziga xos sistemadir. Buni o'zaro bir-birini taqazo qiladigan halqalar majmuiga o'xshatish mumkin: tovush(harf)lar → so'zlar → iboralar → gaplar → abzas → bo'lim, qism, boblar.

Matn tarkibidagi bu uzvlarning o'zaro munosabati gapdagi so'zlarning bir-biri bilan bo'lgan munosabatiga o'xshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turg'unlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalaniladigan va deyarli o'zgarmas bo'ladi. So'zlovchi yoki muallif o'z niyatiga ko'ra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanaveradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda so'zlar orasidagi munosabatdan ko'ra gaplar o'rtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplararo ham mazmunan ham shaklan aloqadorlik mavjud bo'lmasa, matn butunligi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozision butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg'unligi, hamda motivasion yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bog'liq.

Ishni hozirgi o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganishning ayrim masalalaridan boshlashni ma'qul topdik. Badiiy asar tilini o'rganish tilshunosligimizda nisbatan keyin, ya'ni XX asrning 30-yillaridan jiddiy boshlangan bo'lsa-da, bugungi kunda adabiyotshunosligimizning ham eng dolzarb, munozarali muammosiga aylandi.

Atoqli adibimiz Oybek o'zbek tanqidchiligida birinchi bo'lib badiiy asar, jumladan, poeziya tili masalasiga oid maxsus maqola yozgan edi.

O'tgan davr ichida badiiy asar tilini tadqiq etuvchi o'nlab ilmiy asarlar yozildi.² Bu ishlarda badiiy asar tilini o'rganish usullari, uning maqsad va vazifalari haqida turli qarashlar asoslab berilgan. Jumladan, X.Doniyorov va S.Mirzaevlar

² Shomaksudov A. Muqimiy satirasining tili. - T.: ToshDU, 1971; Karimov A. Leksiko-semanticheskie i stilisticheskie osobennosti yazika poemi «Farxad i Shirin» Alishera Navoi.: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. - T., 1973; Yariyev B.Ya. Yazik poezii Maksuda Shayxzade.: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. - T., 1979; Yuldashev B. Yazik i stil proizvedeniy Saida Axmada.: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. - T., 1979; Samadov Q. Oybekning til mahorati. - T.: TDPI, 1980; Xamidov 3. Leksiko-semanticheskoe i lingvopoeticheskoe issledovanie yazika «Lisan at-tayr» Alishera Navoi.: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. -Tashkent, 1986; Karimov S. Yazik poezii Zulfi. - Samarkand: SamGU, 1987; Jumayev T. Umar Boqiy asarlarining lisoniy xususiyatlari.: Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. - T., 1997; Xolmonova Z. «Shayboniyxon dostoni leksikasn: Filol. fan. nomz.... dis. -T., 1998. ¹ Doniyorov X., Mirzaev S. So'z san'ati. - T.: O'zadabiynashr, 1962. - B.173-174; Keldiyorova G. O'zbek badiiy nutqida antiteza: Filol. fan. nomz. ... dis. -T., 2000. - B.13.

badiiy asar tilini o'rganishning ikki aspektini ko'rsatadilar:

1. Lingvistik aspekt. Bu aspektda adabiy tilning o'sish-o'zgarishlarini, undagi grammatik kategoriyalar va so'zlarning leksik-semantik o'zgarishlarini aniqlash, nazariy fikrlarni isbotlash uchun badiiy adabiyot tilidan ko'rgazmali material sifatida foydalanadilar.

2. Stilistik aspekt. Yozuvchining so'z tanlash san'ati, obrazlar xarakterini til vositasida ochish va individuallashtirish mahorati, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati kabi masalalar ustida fikr yuritilib, yozuvchining mahorati, uning o'ziga xos tili haqida hukm chiqariladi.

Badiiy asar tilini o'rganish ijodkorning o'ziga xos badiiy vositalarini aniqlash, uning badiiy mahorati, o'ziga xos uslubini o'rganishdir. Shuning uchun har qanday badiiy asar tili tadqiq etilayotganda yozuvchining qaysi tasviriy vositalardan, xususan, xalq jonli tili boyliklaridan qanday foydalanishi, uning neologizmlarni qanday qo'llashi, yangi so'z va iboralar yasashi tadqiqotchining diqqat markazida bo'ladi.

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning san'at darajasiga ko'tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

Avvalo ta'kidlash kerakki, badiiy asar tilini o'rganishda keng tarqalgan ikki asosiy yo'nalishni kuzatish mumkin. Bu ikki yo'nalishni X. Doniyorov va S. Mirzaevlar «So'z san'ati» deb nomlangan kitoblarida quyidagicha ta'riflaganlar: «Tildagi o'sish-o'zgarishlarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt».³

Tilning muayyan tarixiy davrdagi holati, ayni holatga xos bo'lgan

³ Doniyorov X., Mirzaev S. So'z san'ati.-T:O'zbekiston, 1962.

xususiyatlar, leksik, fonetik va grammatik o'zgachaliklar, tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ilmiy tadqiq etish maqsadida o'sha davrga oid adabiy-badiiy asarlarning tili o'rganilishi mumkin. Bunda badiiy asarlar, yozma yodgorliklar tili ayni maqsaddagi tadqiqot uchun faqat material bo'lib xizmat qiladi. Til tarixini tasvirlash va tadqiq etishda bu yo'l eng qadimgi va mustahkam lingvistik an'ana sifatida yashab kelmoqda. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalishda juda ko'p tadqiqotlar yaratilgan. Ana shunday bir qator ishlar orasida taniqli tilshunos olimlar A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, F.Abdullaev, X.Doniyorov, B.Vafoev, F.Is'hoqov, B.Turdialiev, T.Jumaev⁴ va boshqalarning ko'plab ishlarini ko'rsatish mumkin.

Badiiy asar tilini «stilistik aspekt»da o'rganishning asosiy maqsadi esa bundan farq qiladi, albatta. Bu o'rinda masala tilning turli vazifalarga egaligiga borib taqaladi. O'z ilmiy ijodining asosiy qismini badiiy asar tilini o'rganishga bag'ishlagan G.O.Vinokur tilshunoslikda ancha eskidan tilning kommunikativ va ekspressiv vazifalari farqlana boshlaganini ta'kidlar ekan, fikrining dalili sifatida olmon tilshunosi fon der Gabelentsning 1891-yilda nashr etilgan kitobidagi quyidagi qarashini keltiradi: «Til fikrning bo'laklarga bo'lingan holdagi ifodasi, fikr esa tushunchalarning bog'lanishidir. Lekin inson tili faqat bog'lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so'zlovchining o'z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi; men faqat nimanidir aytishnigina emas, balki so'zimni ham ifodalashni xohlayman va shu tarzda mantiqiy omilga uni har jihatdan to'yintirgan holda psixologik omil qo'shiladi».⁵ Tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to'rt-besh vazifasi qayd etiladi. Masalan, V.A.Avrarin tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to'plash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta'kidlaydi.⁶

⁴ Abdurahmonov G', Rustamov A. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari.-T: Fan, 1984., Abdullaev F. Alisher Navoiy asarlari tilida unli uyg'unligiga doir//O'TA.,1996,№5., Doniyorov X. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. -T., 1972., Bafoyev B. Navoiy asarlari leksikasi. -T: Fan, 1983., Ishoqov F. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari. -T: Fan,1976., Turdialiyev B. Hamza va o'zbek adabiy tili. -T: Fan, 1981., Jumayev T. Umar Boqiy asarlarining lisoniy xususiyatlari. NDA., -T., 1997.

⁵ Vinokur G.O. O yazike xudojestvennoy literaturi. -M., 1991., s-35.

⁶ Avrorin V.A. Problemi izucheniya funktsionalnoy storoni yazika., -L., 1975., s-44

Badiiy asar tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, dunyo tilshunosligi tarixida ayrim olimlar tilning estetik vazifasini keragidan ortiq absolyutlashtirib talqin etgan holatlar ham yo'q emas. Masalan, italyan faylasufi va siyosat arbobi Benedetto Kroche 1902-yilda nashr ettirgan, 1920-yilda rus tilida bosilib chiqqan «Estetika kak nauka o viyrazhenii i kak obshaya lingvistika» nomli kitobida tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtirgan. B. Kroche g'oyalarini davom ettirgan nemis filologi Karl Fossler esa so'z va gapning estetik bo'yog'i betakrorligiga va ayni shu bo'yoqning tilda yetakchi vazifani bajarishiga ishongan. Albatta, til vazifalari orasida estetik vazifani asosiy, yetakchi vazifa deb qarash, ya'ni tilni tamomila estetik mohiyat sifatida talqin etish to'g'ri emas. Ammo bu olimlarni ana shunday mutlaq fikrga olib kelgan narsa tildagi estetik vazifa ham o'zini har qadamda, ayniqsa, badiiy matnda namoyon etib turishi bilan bog'liq ekanligi tayin.

Praga lingvistik to'garagi a'zolari tomonidan tilni vazifalariga ko'ra farqlash kontseptsiyasi ishlab chiqilgan. «Praga lingvistik to'garagi tezlari»da birinchi marta til vazifalari bilan ularning reallashish shakllari o'rtasidagi aloqa haqidagi qoidalar aniq ta'riflab berilgan. «Tezislari» mualliflari mana bunday deb yozganlar: «Tilni o'rganish har bir xususiy holatda tilning vazifalari va bu vazifalarning reallashish shakllarining xilma-xilligini qat'iy tarzda hisobga olishni taqozo etadi. Aks holda har qanday tilning, xoh sinxron, xoh diaxron bo'lsin, tavsifi muqarrar ravishda yanglish va ma'lum darajada soxta bo'lib qolaveradi». Bu fikr shu joyda yana quyidagicha davom ettirilgan: «Nutqiy faoliyat ijtimoiy rol bajarar ekan, u

g'ayrilisoniy borliq bilan aloqasiga ko'ra farqlanadi. Bunda nutqiy faoliyat yo aloqa-aralashuv vazifasiga ega bo'ladi, ya'ni ifodalanmishga yo'naltirilgan bo'ladi, yoki poetik vazifaga ega bo'ladi, ya'ni belgining o'ziga yo'naltirilgan bo'ladi».⁷

Tabiiyki, til o'zining har bir vazifasini o'ziga-o'ziga xos shakllarda ifoda etadi, shuning uchun ham, «Tezislar» mualliflari ta'kidlaganlaridek, til tavsifida ana shu reallashish, ifodalanish shakllarini hisobga olish shart. Ammo tilning u yoki bu vazifasi bir-biridan mutlaqo ajratilgan, tamomila mustaqil holda reallashadi deyish unchalik ham to'g'ri bo'lmaydi. Zotan, kommunikativ (aloqa-aralashuv) vazifa tilning vazifalari orasida eng markaziy, yetakchi vazifa ekanligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q.

Albatta, har qanday badiiy asarda tilning kommunikativ vazifasi ham reallashadi, ammo estetik vazifa birinchi planda turadi, yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham lingvistik adabiyotlarda bu holatga mana bu tarzda alohida urg'u beriladi: «Badiiy matn har qanday nobadiiy matndan farqli o'laroq alohida vazifani – kommunikativ vazifa bilan murakkab o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'luvchi va matnning o'ziga xos qurilishida hal qiluvchi omil hisoblanuvchi estetik vazifani bajaradi».⁸ Bu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tilning bu o'ziga xos estetik vazifasi namoyon bo'ladigan soha faqat badiiy asar matnidir, undan boshqa biron bir nutq ko'rinishida til o'zining bu vazifasini reallashtira olmaydi deb qarash ham asosli emas. Bu ma'noda tilshunos D. N. Shmelevning mana bu fikrlari diqqatga sazovor: «Tilning bu vazifasi (estetik vazifasi) faqat badiiy asardagina namoyon bo'lmaydi. Bizning diqqatimiz jumlaning shakliga, fikr qay tarzda ifodalanganligiga qaratilgan har onda biz aynan shu vazifaning harakati doirasiga kiramiz».⁹

Olimning alohida ta'kidlashicha, so'zlovchi o'z nutqining tashqi shakliga e'tibor bera boshlashi, lisoniy ifoda imkoniyatlarini baholashga o'tishi bilan tilning estetik vazifasi o'zining boshlang'ich ko'rinishida namoyon bo'ladi, ya'ni so'zlovchi nimani ifodalashnigina emas, balki ayni shu «nima»ni qanday

⁷ Prajskiy lingvisticheskiy krujok. – M., 1967., s-24.

⁸ Gorelikova M.I., Magomedova D.M. Lingvisticheskiy analiz xudojestvennogo teksta.-M: Russkiy yazik, 1989, s-5.

⁹ Shmelov D.N. Russkiy yazik v ego funktsionalnix raznovidnostyax.-M: Nauka, 1977, s-35.

ifodalashni ham muhim deb hisoblashidan boshlaboq tilning bu vazifasi ishga tushadi. Jonli so‘zlashuv, kundalik muloqot jarayonidagi ko‘pdan-ko‘p o‘tkir hazillar, latifanamo kulgilar, chuqur ma’noli so‘z o‘yinlari, kimlargadir taqlid qilishlar va hokazo holatlarda ham til belgisi, uning badiiy-ifoda imkoniyatlariga o‘z-o‘zidan diqqat qilinadiki, bunda tilning estetik vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu munosabat bilan D. N. Shmelev quyidagilarni yozadi: «Tilning estetik vazifasi, albatta, so‘zlashuv nutqida ham doimiy ravishda namoyon bo‘ladi. Lekin baribir bu vazifani so‘zlashuv nutqida yetakchi deb bo‘lmaydi, badiiy matnlarda esa til hamisha ayni shu alohida vazifasi bilan ishtirok etadi (bu vazifa, albatta, tilga, uning barcha ko‘rinishlariga hamisha xos bo‘lgan kommunikativ vazifasini cheklamaydi, balki uni o‘ziga xos bir shaklda transformatsiya qiladi)».

Demak, tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifani ham transformatsiya qilgan, badiiyat manfaatlariga to‘laligicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy nutqda namoyon bo‘ladi. Umumxalq tilidagi barcha birliklar badiiy tilda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi.

Badiiy asar tilini o‘rganishdagi ikkinchi, ya’ni «stilistik» yo‘nalish tilning xuddi shu estetik vazifasini tadqiq etishga qaratilgan. Aytish lozimki, tilning estetik vazifasining asosiy namoyon bo‘lish o‘rni badiiy asar matni ekan, bu vazifaning o‘ziga xos xususiyatlarini faqat tilshunoslik yoki faqat adabiyotshunoslik doirasida o‘rganish qiyin. Buning uchun adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, poetika kabi adabiyotshunoslik yo‘nalishlari va lingvistik stilistika, til tarixi, leksikologiya, semasiologiya, etimologiya, grammatika kabi tilshunoslik yo‘nalishlari bir-biri bilan hamkorlikda ish ko‘rishi lozim. Tilning estetik vazifasi masalasi bu ikki yirik fan oralig‘idagi murakkab muammodir. Hatto asrimiz boshida bir qator tilshunos va adabiyotshunoslar bu muammoni ilmiy asosda o‘rganadigan alohida fan turi shakllanishi lozimligi haqidagi qarashni ilgari surganlar. Masalan, B. A. Larin 20-yillarning boshlarida mana bunday deb yozgan edi: «Ertadir - kechdir, menimcha, juda tez orada til estetikasi alohida fan sifatida

tan olinadi».¹⁰

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo'lishi tarzida o'rganuvchi sohani «lingvistik poetika» - «lingvopoetika» deb nomlash filologiya ilmda ancha turg'unlashgan hamda «lingvistik poetika»ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o'rnini aniqlashtirishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Ana shu ma'noda badiiy asar tilini «stilistik aspekt»da o'rganishni «badiiy asar tilini lingvopoetik jihatdan o'rganish» tarzida nomlash va talqin etish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda lingvopoetika bo'yicha jiddiy izlanishlar olib borgan V.P.Grigorev tavsiya qilgan bir chizmani havola qilishni lozim topdik. Bunda **Y** – tilshunoslik (языкознание), **L** – adabiyotshunoslik (literaturovedenie), **YK** – lisoniy tanqid (языковaya kritika), **LK** – adabiy tanqid (literaturnaya kritika), **LP** – lingvistik poetika, **SV** – she'rshunoslik (stixovedeniye).¹¹

Chizmadan anglashiladigan ma'no shuki, lingvopoetika ham adabiyotshunoslik ham tilshunoslik fanlari erishgan nazariy yutuqlardan foydalangan holda badiiy matn ustida tadqiqotlar olib boradi. Bizningcha, lingvopoetik tahlil keng qamrovli jarayon. Unda nafaqat adabiyotshunoslik va tilshunoslikning, balki sotsiologiya, psixologiya, estetika, falsafa kabi fanlar erishgan ilmiy-nazariy yutuqlardan foydalanish mumkin.

O'zbek tilshunosligida badiiy asar tili lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etilgan ishlar juda ko'p. Masalan, bir qator ishlarda Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o'rganilgan, ulug' mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy vositalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Akademik Sh.Shoabduraxmonovning bir qator ishlarida o'zbek xalq dostonlari, shuningdek, adiblar badiiy asarlarining tili chuqur tahlil etilgan, leksik-semantik, grammatik birliklarning konkret asardagi badiiy-estetik qimmati ochib berilgan. Badiiy til masalasini ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzaev, X.Samadov, I.Qo'chqortoev, X.Abdurahmonov, M.Mirtojiyev, N. Mahmudov va boshqalar alohida diqqatga sazovor bir qancha

¹⁰ Larin B.A. Estetika slova i yazika pmsatelya.-L:Xudojestvennaya lit-ra,1974,s-28.

ishlarni yaratganlar.

O'zbek tilshunosligida keyingi o'n yilliklarda muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini mufassal ko'rsatishga bag'ishlangan juda ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelganligi quvonarlidir. Aytish lozimki, badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga e'tibor qilinganligi ko'zga tashlanadi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva o'zining monografiyasida¹² o'zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari haqida fikr yuritgan. E.Qilichev esa «Badiiy tasvirning leksik vositalari» (1982) deb nomlangan kitobida badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar ustida to'xtalgan. B.Umurqulovning «Poetik nutq leksikasi» (1990) nomli monografiyasida hozirgi o'zbek she'riyati tilining leksik manbalari, poetik leksika, an'anaviy poetizmlar, so'z variantlari va ularning estetik qimmati kabi masalalar tadqiq etilgan. Ko'rinib turganiday, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo'yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi nechog'lik katta bo'lishiga qaramasdan, ular adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo'lmaydi. Buning ustiga, mazkur tadqiqotlarning ilmiy saviyasini ham bir xil deb aytish qiyin.

Ushbu qo'llanmada yozuvchining lisoniy birliklardan foydalanish mahoratining badiiy matnda aks etish darajasini aniqlash, badiiy matn va uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va shu asosda talabalarning umumfilologik saviyasini oshirish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilindi. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar bajarilishi nazarda tutildi:

- matn tushunchasi, matn tiplari va tarkibiy butunligi;
- badiiy matn tavsifi, badiiy matnning boshqa matnlardan farqi, badiiy nutq uslubi, badiiy matnning kompozitsion butunligi, butunlikni ta'minlovchi lisoniy vositalar;
- badiiy matnni tahlil qilish metodologiyasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari

¹¹ Qarang: Yoqubbekova M.O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari.«Fan»2005,21-b.

va usullari, tahlil tiplari;

- badiiy matnni til sathlari bo'yicha tahlil, badiiy matnda fonologik va leksik-frazeologik birliklar estetikasi, tasviriy vositalarning badiiy matndagi vazifasi hamda grammatik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari.

Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini o'rganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham e'tibor qaratish nazarda tutilgan.

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida¹³ matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Izohli lug'atning 156-betida tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: 1.Yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti. 2.Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3.Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi. Bu ta'rifda matnning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan. Faqat axborot-kommunikatsiya vositalarining taraqqiy etishi natijasida matn (tekst) so'zi anglatadigan ma'no yanada ortganligini ko'rishimiz mumkin. Kompyuterda terilgan matn formati Word, RTF matn, oddiy matn, formatlangan matn, gipermatn kabilar ham iste'molda faollashdi.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsion ishida bu haqda shunday yozadi: Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining

¹² Abdullayeva L. Leksicheskaya stilistika uzbekskoy xudojestvennoy literaturi.-T:Fan, 1979.

asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid ba'zi so'zlar, gapning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi.¹⁴ Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Nutq og'zaki va yozma shakllarda namoyon bo'ladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi. «Nutq subyektdan adresatga yo'naltiriluvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat obyektiv informatsiyadan iborat bo'lmay, balki o'ziga pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir».¹⁵ Tilshunos olim M. Arriv «Diskurs, ifoda (recit) va bular orasidagi aloqani maydonga keltiradigan butunlikka matn deyiladi»¹⁶ deydi. Ilmiy adabiyotlarda kontekst atamasi nutqiy vaziyat mahsuli deb ko'rsatiladi. «Kontekst – bu bir leksik yoki grammatik birlik asosida ifodalangan ma'no yoki tushunchani oydinlashtirish uchun keltirilgan, tuzilgan minimal nutq birligi. Qoida bo'yicha bu – so'z birikmasi, ba'zan gap, kamdan-kam abzas yoki yaxlit matnga teng keladi».¹⁷ Masalan, tuyoq so'zi hayvonga aloqador a'zo hisoblanadi: Loyi ko'pirib yotgan yo'lda ot taqalari, mol tuyoqlaridan hosil bo'lgan chuqurchalarni limmo-lim to'ldirgan sariq zardoblar jimirlab, yoni-veridan sirqib yotardi (P.Tursun). Mazkur so'z insonga nisbatan qo'llanilganda salbiy ottenka birinchi planga chiqadi: Obro'ying borida tuyog'ingni shiqillatib qol. Kontekst so'zlarning semantik ma'nosi reallashadigan o'ziga xos maydon, nutqiy vaziyat hisoblanadi. Bu o'rinda S.D.Katsnelsonning quyidagi fikrini keltirib o'tish o'rinli: «Borliqning mavjud dalillari lug'atlarda berilganidek alohida so'zlarda emas, balki nutqiy aloqalarda, tugal xabarlarida, matnlarda, ularning minimal bo'lagi bo'lgan gaplarda aks etadi... So'zlar va ular ma'nolarining ong va borliqqa munosabati gap orqali bog'langan, gapdan tashqarida ular faqat potentsial birlikdir, xolos. Ularni mexanizmning detallariga

¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. –M: Russkiy yozik, 1981, 452-b.

¹⁴ Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. ND.-T., 1993, 7-b.

¹⁵ Matveeva T.V. Funktsiye stili v aspekte tekstovix kategorii. –Sverd. 1990, s-5.

¹⁶ Qarang: Sherif Aktaş Edebiyatta üslup ve problemleri. –Ankara, «Akçağ», 1993, 46.s

¹⁷ Zilberman L.I. Lingvistika teksta i obuchenie chteniyu angliyskoy nauchnoy literaturi. –M., 1988, s-29

qiyoslash mumkin, ularning vazifasi faqatgina butun bir mexanizm bilan aloqada tushuniladi».¹⁸

Tilshunos E.Qilichev «Matnning lingvistik tahlili» deb nomlangan kitobida «Matn – hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va avtor nuqtai nazaridan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ – estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma» degan ta’rifni keltiradi. I.R.Galperin matnning ma’lumot berish, bo‘linuvchanlik, kogeziya (aloqalar sistemasi), kontinuum (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantikasi, retrospektiya va prospektiya, modallik, yaxlitlik va tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasi mavjudligi haqida ma’lumot beradi. Umuman matn, deyilganda nutqiy jarayon mahsuli bo‘lgan, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo‘lgan, adabiy shakllangan, superfrazali birliklardan tuzilgan, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog‘langan, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asarni tushunmoq kerak. Tilshunos I.Rasulovning fikricha, gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo‘lib, u fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to‘liq bo‘ladi. Hozirgi davrda matn turlari va ularga xos bo‘lgan belgi-xususiyatlarni aniqlash davom etmoqda. Biz matnning o‘ziga xos belgilari sifatida axborot berish, mustaqil gaplar yoki murakkab sintaktik butunlikdan tashkil topishi, tarkibiy qismlar orasida mazmuniy va sintaktik aloqalarning mavjudligi, makon va zamon izchilligi, yaxlitligi va tugallanganligi, bir umumiy mavzuga egaligi kabilarni tushunamiz. Matn ana shunday belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan murakkab kommunikativ - sintaktik butunlikdir.¹⁹ Yu. M. Lotman «matn ifodalilik (ma’lum bir fikr ifodalangan bo‘lishi), chegaralanganlik (mazmun va ifodadagi me’yoriylikning bo‘lishi) va struktural butunlik belgilariga ega bo‘lishi lozim»²⁰ligini ta’kidlaydi. Ayniqsa, badiiy matn uchun mazkur belgilar favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn uslubiy mohiyatiga ko‘ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma’ruza, annotatsiya, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn

¹⁸ Shamsiddinov H. O‘zbek tilida so‘zlarning funkts-semantik sinonimlari. DD.,-T.1999, 187-b.

¹⁹ Hakimova M.K. O‘zbek tilida vaqt ma’noli lug‘aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. ND., - Farg‘ona, 2004, 103-b.

(ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi.

Tadqiqot manbai bo'lmish Erkin Samandar she'riyati ham o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shoirlik iste'dodining muhim bir qirrasini shundaki, shoir so'z seyrini mukammal egallagan, uning barcha siru asrordan xabardor bo'lishi zarur. Erkin Samandar she'rlariga o'zgachalik baxsh etgan omillardan eng asosiysi - uning o'ziga xos tili, o'ziga xos tasvir usuli, xalqona jaydarilikdir.

Mazkur ilmiy ishda asosiy e'tibor Erkin Samandarning antitezadan, sinonimik imkoniyatdan, maqol va iboralardan, takrordan foydalanish mahoratini tadqiq etishga qaratildi. Shuningdek, individual okkazionalizmlarning lingvopoetik xususiyatlariga ham ahamiyat berildi. Shoir ijodi tilini faqatgina ushbu tasviriy vositalargina belgilamaydi, chunki bu she'rlarda ko'chma ma'nolarni qo'llash, shevaga xos so'zlarni ishlatish mahorati va hokazo jihatlar hali o'z tadqiqiy yechimini kutmoqda.

Erkin Samandarning antitezadan foydalanishi bir necha sof va kontekstual antonim juftliklar misolida tahlil etilish mumkin. Jumladan, Erkin Samandar o'z she'rlarida *yer-osmon* kontekstual antonimlarini juda ko'p qo'llaydi. Shu bilan birga, shoir o'zbek tilining sinonimik imkoniyatlari kengligidan foydalangan holda *yer-osmon* kontekstual antonimik juftligining sinonimlarini keltirib, ularni ham zidlab qo'llashga harakat qiladi.

Gohi ko'kka intilib,

Gohi yerga egilib...

O'zbekni yer tanir,

Osmon taniydi.

Menga yering suyak,

Osmoning suyak.

²⁰ Lotman Y.M. Struktura xudojestvennogo teksta. –Moskva, 1970, s-67.

Ruhim ko'kda,

Tuproqda tanam.

«Yer» ma'nosining *tuproq* so'zi orqali berilishi o'zbek tilida an'anaviy hisoblanadi.²¹ Shuning uchun yuqorida keltirilgan *ko'k-tuproq*, *tuproq-osmon*, *osmon-yer*, *yer-ko'k*, *yer-osmon*, *yer-samo* antonimlari ham ana shu an'anaviylikni davom ettirgani holda o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Bular haqida quyidagi fikr-mulohazalarni bildirish mumkin:

- birinchi parchada *ko'kka intilmoq* birikmasi «olg'a ketmoq», «yuqorilamoq», «ilgarilamoq» ma'nosida, *yerga egilib* birikmasi esa «harakatdan to'xtamoq, tushkunlikka tushmoq» ma'nosida ishlatilgan, bu o'rinda *yer*, *ko'k* so'zlari ishtirokida birikmalar hosil qilinib, antiteza yuzaga keltirilgan;

- ikkinchi parchada *yer* va *osmon* so'zlari orqali «butun dunyo» ma'nosi mujassamlashtirilgan, ya'ni «o'zbekni butun dunyo taniydi», bu o'rinda *yer* va *osmon* so'zlari antiteza hosil qilmagan deb hisoblash mumkin; uchinchi parchada *yer* va *osmon* so'zlari orqali yaxlit tushuncha - «barcha joy» ma'nosi ifodalangan, ya'ni «Vatanning barcha joyi shoir uchun suyuq»;

- to'rtinchi parchada *ko'k* so'zi *arshi a'loga* sinonim sifatida tanlangan, *tuproq* esa «yer osti» ma'nosini ifodalashga xizmat qilyapti;

- beshinchi parchada *osmon* va *tuproq* so'zlari yordamida hosil qilingan *o'zini osmon bilmoq* birikmasi «o'zini baland olmoq», *tuproq bilmoq* birikmasi esa shoir «men»ni mensimaslik ma'nolarida qo'llangan;

- oltinchi parchada esa *yer* va *samo* so'zlari orqali hamma imkoniyatga, moldunyo, davlatga egalik nazarda tutilmoqda, ya'ni «qo'l uzatsa hamma joyga yetadi» ma'nosi ifodalanmoqda.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, shoir o'zbek tilining imkoniyatlaridan unumli foydalangani holda (*yer-tuproq* va *ko'k-osmon-samo* ma'nodoshlar qatoriga e'tibor bering), *yer-osmon* so'zlarining ma'nolaridagi qarshilantirish va boshqa nozik ma'noviy jihatlarni ham ilg'ay olgan. Shuningdek,

²¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. - M.: Rus tili, 1981. T. I. B.225 (Bundan keyingi o'rirlarda O'TIL ko'rinishida beriladi).

shoir she'rlarida anchagina uchraydigan, insonning turli ruhiy holatlarini anglatish vositasi bo'lib kelgan antonimlar ham tahlil etildi.

Erkin Samandar she'rlaridagi sinonimlar grammatik hamda semantik jihatdan ko'rib chiqildi. Uslublararo ma'nodoshlik, o'z va o'zlashgan qatlam birliklari ma'nodoshligiga ahamiyat berildi. Erkin Samandar she'rlarida bir sinonimik qatordagi so'zlarning qo'llanishi ko'p uchraydi. Masalan:

Omadli bo'ling siz,

Baxtli bo'ling siz.

Shoir keltirilgan baytlarda *omadli-baxtli*, *toqat-sabr*, *valida-ona* kabi sinonimlarni she'r rang-barangligini ta'minlash, nozik ma'nolarni berish uchun foydalangan.

Kontekstual ma'nodoshlik nasrdan ko'ra nazmda ko'proq uchrashini e'tiborga olsak, bu hol Erkin Samandar she'rlarida ham istisno emas:

Ko'ksi tiniq bola,

Halol bola.

Bandda *ko'ksi tiniq* - *halol* kabi birliklar sinonim sifatida tanlanib, she'r poetikasi yuqori darajaga ko'tarilgan deyish mumkin.

Erkin Samandar she'rlarida iboralarning qo'llanishi quyidagi yo'nalishlarda o'rganildi:

- iboradagi biror so'z ma'nodosh leksema bilan almashtirilgan;
- ibora grammatik jihatdan o'zgartirib qo'llangan.

Qo'lin bog'lab,

Dilin dog'lab.

Ikkinchi misradagi *dilini dog'lamoq* iborasiga diqqat qilinsa, u *dilini siyoh qilmoq* iborasining sinonimik o'zgartirilgan varianti ekanligini kuzatish mumkin. Sinonimik o'zgartirish natijasida darajalanish, ya'ni ma'noviy shakldoshlik yuzaga kelgan: *dilini dog'lamoq* iborasida *dilini siyoh qilmoqqa* nisbatan fikr kuchliroq ifodalangan. Bu o'rinda *dog'lab* so'zining birinchi misra so'ngidagi *bog'lab* so'ziga qofiyadosh sifatida tanlanishi ham juda chiroyli chiqqanligini ta'kidlash lozim.

Boshqa manbalarda esa ushbu iboraning *bag'rini dog'lamoq* varianti uchraydi.²² Bunday holatda *bag'irdosh* ma'nodoshligini asos qilib olish mumkin. O'TILda *bag'ir* so'zining ko'chma ma'nolaridan biri shunday ta'riflanadi: «*Bag'ir...* 4. ko'chma. His-tuyg'u va kechinmalar manbai; yurak, qalb, *dil*»²³. Demak, har ikkala holatda ham ma'nodoshlik o'rinli qo'llangan.

Hech kimsaga bukma bosh,

Cho'rtkesar bo'l, qaysar bo'l. («O'g'il bo'lsang») «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»da *bosh egmoq* iborasi quyidagicha izohlanadi: «1. Itoatkor bo'lmoq. Sinonimi: *bo'yin egmoq, bo'ynini xam qilmoq*. 2. Itoat qilmoq, bo'ysunmoq. Sinonimi: *bo'yin egmoq*». Demak, ikkala holatda ham sinonimik variantda *bosh* so'zi o'rnida *bo'yin* so'zi, birinchi holatda *egmoq* fe'li o'rnida *xam qilmoq* fe'li keltirilgan. Misrada *egmoq* fe'li o'rnida *bukmoq* fe'lining bo'lishsiz shakli qo'llangan. Ayrim manbalarda ushbu ibora ko'p variantli iboralar qatorida keltirilgan: «Quyidagi misolda uch variant leksik variant bo'lib, birinchisi leksik qo'shish natijasida, ikkinchisi leksik almashtirish hamda leksik qo'shish natijasida, uchinchisi esa leksik almashtirish natijasida tug'ilgan. Grammatik variant grammatik almashtirish hamda grammatik qo'shish bilan, leksik-grammatik variant esa leksik almashtirish hamda tartib o'zgartirish bilan hosil qilingan: *bosh(i)ni bukmoq* va *bosh(i) bukdi* va *bosh(i)ni erga bukmoq* va *bosh(i)ni quyi egmoq* va *egilgan bosh(i)* va *bosh(i)ni xam qilmoq*».⁵ Bu o'rinda *egma* so'zi o'rnida *bukma* so'zining qo'llanishi, ular ma'nodosh bo'lishidan qat'i nazar, fikrimizcha, o'zini oqlamagan. Chunki *bosh* bilan *bukmoq* so'zlari valentligi bir-biriga mos emas. Bosh egiladi, biroq bukilmaydi (bel bukilishi mumkin). Agar *bosh* so'zi *qad* ma'nosida qo'llangan bo'lsa, ma'nodosh so'z almashtirishni o'rinli deb hisoblash mumkin: *Qaddingni bukma* kabi.

Shu bilan birga ibora ma'nosini saqlagan holda uni shaklan kengaytirish holatlari ham mavjud: *tirik jon ko'zim* (*ko'zi tirikligida*), *ko'ngil o'lgur to'lmaydi hech* (*ko'ngli to'lmadi*), *yo'qdan borin binolar qildim*. (*yo'qdan bor qilib, yo'qni yo'ndirib*). Birinchi va ikkinchi misollarda hajman

²² Berdiyev H., Rasulov R., Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. - I- qism. Samarkand, 1979, - B.78.

²³ O'TIL, T. II. B.295.

kengayish soʻzlashuv uslubiga xoslanganlik hisobiga yuz bergan boʻlsa, uchinchi parcha kitobiy uslubga xos *bino qilmoq* qoʻshma feʼlining keltirilishi bilan kengaytirilgan.

Erkin Samandar sheʼrlarida maqollarning qoʻllanishi uch yoʻnalishda koʻrib chiqildi:

- maqollardagi ayrim soʻzlarning grammatik jihatdan oʻzgartirib qoʻllanishi;
- maqollarda ayrim leksik oʻzgarishlar (sinonim, kontekstual antonim yoki boshqa soʻzlar tanlash hisobiga) yuz berishi;
- maqollarda soʻz tartibining oʻzgarishi.

*Bitta qiz erga tegsa,
qirqtasi tush koʻrarmish. («Oʻlan»)*

Ushbu maqol «Maʼnolar maxzani»da «*Bir qiz erga tegsa, qirq kiz tush koʻradi*» shaklida berilgan,²⁴ Qoʻshma gapning birinchi qismidagi *bir qiz* birikmasi xalq maqolida umumiylikni ifodalasa, sheʼrdagi *bitta qiz* birikmasi zimmasiga alohida ajratib koʻrsatish vazifasi yuklangan. Qoʻshma gapning ikkinchi qismidagi *qirq qiz* birikmasining *qirqtasi* tarzida otlashgan shaklda berilshni *bitta qiz* birikmasi bilan shartli antitezani yuzaga keltirgan, yaʼni *bitta qiz* ozchilik, *qirqtasi* koʻpchilikni ifodalash uchun qoʻllangan deb hisoblash mumkin. Bu antiteza xalq maqolida ham saqlangan. Ikkinchidan, keyingi misradagi *qirqtasi* soʻzining qoʻllanishi oldingi misradagi *bitta qiz* birikmasi bilan uygʻunlasha olishiga eʼtibor berish lozim. Solishtiring:

<i>Bir qiz</i>	-	<i>bitta qiz</i>
1		1
<i>qirq qiz</i>	-	<i>qirqtasi</i>

Almashtirish natijasida ikki boʻgʻin oʻrnida uch boʻgʻinning yuzaga kelishi, birinchidan, sheʼrning 7 boʻgʻinli vazniga moslashish imkoniyatini vujudga

²⁴¹ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Maʼnolar maxzani. – T: «Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi», 2007.

keltirgan bo'lsa, ikkinchidan, misralardagi 3+4 o'lchovli turoqni saqlab qolgan. Ikkinchi misradagi kesimning *tush ko'radi* shaklida emas, *tush ko'rarmish* shaklida qo'llanishi o'ziga xos jihatga ega - u she'r bandining dastlabki ikki misrasidagi gap kesimiga qofiyalangan: *To'ylarni hammadan ham Bo'y qizlar xush ko'rarmish*. misralaridagi qo'shma fe'lining ikkinchi qismidagi *ko'radi* so'ziga nisbatan *ko'rarmish* so'zi she'rdagi xalqonalikni kuchaytirgan. *Endi osmon yiroq, Endi yer yumshoq*. («Lolaqizg'aldoq») Keltirilgan she'riy parcha xususida esa quyidagi fikrlarni bildirish o'rinlidir:

1. Shoir tomonidan «*Osmon uzoq, yer qattiq*» maqoli mohirona o'zgartirilib, *uzoq* so'zi o'rnida unga ma'nodosh bo'lgan *yiroq* hamda *qattiq*, so'zi o'rniga uning antonimi *yumshoq* tanlangan.

2. Maqol bog'lovchisiz qo'shma gapdan tashkil topgan bo'lib, ikkala gapdagi ega antiteza hosil qilgan (ya'ni *osmon - yer*), ikkinchi sodda gapning kesimi *qattiq* o'rniga *yumshoq* tanlanishi sababini quyidagicha izohlash mumkin: «*Osmon uzoq, yer qattiq*» maqoli «haddan tashqari og'ir ahvolga, noilojlik holatiga tushib qolgan kishilar tomonidan: «Juda og'ir ahvolga tushib qoldim. Lekin ilojim qancha: osmon uzoq, yer qattiq (ya'ni, o'lay desam, o'lolmayman - jon shirinlik qiladi, tiriklayin esa yerga kirolmayman)», degan ma'noda aytiladi».¹ Agar keltirilgan misralar «Lolaqizg'aldoq» she'ridan olinganligi hamda bu she'r Shavkat Rahmon xotirasiga bag'ishlanib, shoir umrining so'nggi damlaridagi so'zlari ifodalanayotganini e'tiborga olsak, u jon taslim qilish oldidan yer yumshoq bo'lganligining sababi anglashiladi:

Jism o'z ulfati -

Jondan tonmoqda.

Bechora jon endi

Qayerga borsin.

Endi osmon yiroq,

Endi yer yumshoq.

3. Bu maqol mumtoz adabiyotimiz namunalarida ham o'z ma'nosini

saqlagan holda uchraydi:

*Er din desa qozib chiqoray, er erur qotiq,
Ko'k konidan desaki olay, ko'k yiroq zarur.* (Alisher Navoiy)

*Erga kirsam koshki chun etmas ul oyga shik,
Mushkul ahvole tushubtur: «Er qotiku, ko'k yiroq».* (Lutfiy)

Maqolning nafaqat so'zi, balki ma'nosi ham o'zgartirilgan varianti Erkin Samandar she'ridagi qahramonning ruhiy holatini tasvirlashda qo'l kelgan.

Erkin Samandar ayrim she'rlarining dastlabki misralaridayoq xalq maqollarini keltiradi. Bu esa she'r g'oyasining boshlanish nuqtasi vazifasini o'taydi, bayon etilmoqchi bo'lgan fikr, maqsadning o'quvchiga tezroq yetib borishini ta'minlaydi hamda she'rdagi xalqonalikni kuchaytiradi:

*Yolg'on yomon derlar,
Xushomad yomon.*

Ayrim o'rinlarda shoir ta'sirchanlikni oshirish maqsadida xalq maqolini keltira turib, uning ma'nosini inkor etgan holda juda chiroyli tasvir yaratishga erishadi:

Erkin Samandar ijodida xalq maqollari va iboralar ta'sirida «kashf etilgan» aforizmlar, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Bu barqaror birliklar xalq maqollari bilan hamohangdir.

II BOB. ERKIN SAMANDAR SHE'RIYATI LEKSIKASINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

2.1. Erkin Samandar she'riyatida takror va boshqa vositalarning qo'llanishi

She'ning joziba kuchi, badiiyligini oshirishda takror alohida o'rin tutadi. Shoir va yozuvchilar tasvirlayotgan voqea-hodisaning nazarda tutilgan tomoniga o'quvchining diqqatini tortish, uni bo'rtshribroq ko'rsatish uchun yoki ma'lum narsalarni sanab ko'rsatish niyatida ko'proq she'riy asarlarda... ayrim tovush yoki tovushlar birikmasiga, gaplarga ataylab alohida urg'u beradi, takrorlaydi. So'z takrori nazmda bir qancha san'atlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ladi.

Takrorning alliteratsiya, epifora, rifma, anafora, assonans, konsonans, monorim, pleonazm, tautologiya, naqarot kabi turli xil ko'rinishlari mavjud.

Erkin Samandar she'rlarida takror juda ko'p qo'llanadi. Ularni kontakt holatdagi va distant holatdagi takror ko'rinishlarida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Kontakt holatdagi takror aynan hamda o'zgarishga uchragan tarzda o'rganildi.

Kontakt holatdagi takrorning aynan qo'llanishi so'z, so'z birikmasi, ibora, gap doirasida kuzatiladi.

Kontakt holatdagi takror Erkin Samandar she'rlarida ko'p o'rinlarda undalma takrori bilan beriladi:

*Kirma bulutlar ostiga, berma bulutga erk,
Sen ko'k uza xomush esang, yer ham xomush, quyosh.
Dilim to'kib g'uborli sarxush qo'shiq to'qir,
Shu'langni bir sharob kabi qilganda no'sh, quyosh.
Yoki:
Dilimga laxcha o't solding,
Na o'tki, chulg'ading olding,
Uni sen tor qilib chalding,
Sozi, ko'rking ibo, lazgi.
Nahordek jilvagar, sernoz,*

Bahordek durmishi pardo,

Vafodek nodir-u mumtoz,

Amudek serjilo, lazgi.

Bu ikki holatda undalma takrori musiqiy ohangdorlikni yuzaga keltirgan (etibor bering: quyosh — tovushdoshlik, undalma ta'kidni kuchaytirgan. Ma'lumki, undalma sintaktik jihatdan gap bo'lagi bo'la olmaydi. Ammo «...u gapning ayrim bo'laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo'lib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayrim gap bo'laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o'ziga xos ... aloqaga kirishadi. Ma'lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki hatto o'rnining o'zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta'sir etadi, avtorning aytmoqchi bo'lgan fikri anglashilmay qoladi») Keyingi ta'kid yuqoridagi parchalarda qo'llangan undalmalarga ham taalluqlidir. Ularning takror qo'llanishi esa muallif hissiy munosabatini kuchliroq ifodalaydi. Agar bu parchalardagi undalma yakka holda yoki o'zni o'zgartirilib qo'llanganda, hissiy munosabat ancha zaiflashgan bo'lar edi. Keyingi undalmaning takror qo'llanishida boshqa bir jihatni kuzatamiz:

Muhabbat, muhabbat, hammasidan ham

Sochga oq tushganda kelganing alam!..

Onajon, sevgilim takror holda qo'llangan avvalgi parchalarda undalma faqat muallifning nutqi qaratilgan shaxsnigina ifodalasa, takror qo'llangan *muhabbat* undalmasi gapda qo'llanmagan *sen* olmoshining ma'nosini izohlagan. Uchala parchada asosiy e'tibor murojaat etilayotgan obyektga qaratilganligi uchun ham undalma takror qo'llangan bo'lishi mumkin.

Kontakt holatdagi takrorning o'zgarish bilan qo'llanishi, albatta, she'riy vaznni saqlash yoki ozgina bo'lsa ham ma'no yoxud shakl jihatdan biror yangilik kiritish maqsadi bilan bog'liq bo'ladi.

Kimga posbon, kim uchun armon ota,

Kimga qalqon, kim uchun darmon ota,

Pahlavon Mahmud – suyuk komron ota,

Vaqt uchar misli G'irotda, Polvon ota,

Siz G'irotda barhayot, Polvon ota.

Ushbu she'riy parchada kontakt holatdagi takrorda fonetik jihatdan cho'zib talaffuz qilish orqali yuzaga kelgan o'zgarishni kuzatamiz:

Toshkent,

Ona shahar,

Behad, bepoyon - .

O'zbekistondagi eng baland terak.

Aniq ta'rifingni qilmoqqa bayon

Ulkan yurak kerak,

Ulka-an yurak kerak! («Toshkent»)

Ko'ramizki, unli tovushni cho'zish natijasida mubolag'a yanada kuchaytarilgan. Ya'ni kattalik darajasiga ko'ra ulkandan ham kattaroq yurakni tasavvur etish uchun *a* tovushi cho'zib aytiladi. Natijada takror tufayli darajalanish ham yuzaga keladi.

Grammatik o'zgarishlarni takrorning yo birinchi, yo ikkinchi qismida kuzatish mumkin.

Birinchi misradagi kesimlik shaxs-son qo'shimchasi keyingi misrada tushirilgan. She'ning uchinchi misrasida yuqoridagi «soddalik»ning natijasi ko'rsatiladi. Shuning uchun takrorning ikkinchi qismida shaxs-son qo'shimchasi mantiqiy jihatdan olganda ham, she'rdagi bo'g'inlar soni jihatidan ham ortiqcha hisoblanadi.

Dastlab bu misralar o'qilganda, takror ikki marta qo'llangan degan tasavvur hosil bo'ladi. Chunki *lola* va *lolaqizgaldoq* ikki xil gul nomini bildiradi. Lekin she'ning «Lolaqizg'aldoq» deb nomlanishi hamda *lolaqizg'aldoq* Erkin Samandar she'riyatida eng ko'p uchraydigan ramz ekanligiga e'tibor bersak, *lola* (yirik chiroyli gulli bahorgi o'simlik va uning qizil, sariq yoki targ'il guli)¹ haqidagi dastlabki tasavvurimiz yo'qoladi. O'TILdagi *lolaqizgaldoq* so'zining izohiga e'tibor beraylik: bahorda ochiladigan lolasimon gulli yovvoyi o't va uning guli.² Lolaqizg'aldoqning

aynan ta'kidlangan *lolasimon* sifati uning she'rda avval *lola* shaklida qo'llanishi uchun asos bo'lgan deb hisoblaymiz. Keyingi takrorda uni qahramonga yanada yaqinlashtirish uchun erkalash qo'shimchasi *-jon* hamda egalik qo'shimchasining birlikdagi birinchi shaxs ko'rsatkichi *-im* qo'shiladi. Shu o'rinda Erkin Vohidov she'rlariga murojaat etamiz:

Yolvorib men pastda derdim: bir nafas yonimga tush,

*Azganush, hoy, Azganushim, Azganushjon, Azganush.*²⁵

Ko'ryapmizki, takrorda xuddi yuqoridagi kabi erkalash va egalik qo'shimchalari qo'llanmoqda. Keyingi bandlarda esa bu qo'shimchalar o'rin almashib boradi va *Azganushim, Azganushjon, hoy, Azganush; Azganushjon, Azganush, hoy, Azganushim, Azganush* qabilida takrorlar qatori hosil qilinadiki, bu she'rdagi ohangdorlikni oshiradi. Erkin Samandardagi *lola, lolajonim, lolaqizgaldoq* takrorida yirikdan maydaga qarab darajalanish pog'onalarini ham kuzatish mumkin. Shu bilan birga, shoir erkalash ma'nosini kuchaytirishni *lolajonim* va *lolaqizgaldoq* so'zlariga yuklagan. Bu esa she'r o'ynoqiligini ta'minlagan. Xuddi *Azganush, Azganushim, hoy Azganush* kabi holat yuzaga keltiriladi: oddiy murojaat erkalovchi munosabatda – suyish munosabatida bo'lishini kuzatish mumkin. Erkin Samandarning quyidagi she'rda ham shunday holatni ko'rish mumkin:

Yo'qdir mening bir dilrabo yupanchim,

Quvonchim bo'l, quvonchim bo'l, quvonchim.

Dilga ishqing tushib, yo'qoldi tinchim,

Quvonchim bo'l, quvonchim bo'l, quvonchim.

Yoki:

Bu oqshom ko'p quvnoqman,

Bugun senga qo'noqman.

So'zlagil, deb qistama,

Qiz maqtashga no'noqman.

²⁵ Vohidov E. Ishq savdosi. -T.: Sharq, 2000. - B.69.

*Mehrimni aytolmayman,
Chiroyli so‘z topolmayman,
O, Mariza, Mariza,
O, Mariza, Mariza!*

*Qoragina Jyuli,
Saragina Jyuli!
Qo‘llarida chuvrindi yog‘och –
Qamchi dastasiday tayoqcha.
Yarim och-u yarim yalang‘och,
Bazo‘rgina turar oyoqda.
Tani qora, yorug‘ xayoli,
Qora ko‘zda yosh tomchi-tomchi.
Tayoqqa o‘z suratin solib,
Yo‘lin topsa, u pullamoqchi.
Qoragina Jyuli,
Saragina Jyuli!*

Distant holatdagi takrorning aynan qo‘llanishi ham o‘ziga xos ko‘rinishlarga ega:

*Bir kechaning izohi –
Yarmi quvonch, yarmi g‘am.*

Birinchi misrada *bir kecha* birikmasi beriladi va butunning ikki bo‘lakka bo‘linishi hamda ushbu ikki bo‘lakning bir-biriga zidlantirilishi *yarmi* so‘zining takrori bilan birga *quvonch*, *g‘am* so‘zlari orqali amayaga oshiriladi: *yarmi quvonch, yarmi g‘am*. Bunday takrorlar odatda grammatik yoki mantiqiy jihatdan teng bo‘lgan bir

necha subyekt yoki obyektни ifodalaydi.

Quyidagi misralarda shoir matndagi gaplarni o‘zaro bog‘lash uchun olmoshlardan foydalanish bilan birga, o‘ziga xos ohangidan foydalangan holda “Odam o‘g‘li odamzod” undalmasini ham yaratgan. Shuning uchun ushbu she‘r ko‘pgina xonandalar tomonidan qo‘shiq qilib ijro etilgan:

Tong ziyosi seniki,

Baxt daryosi seniki,

Erk dunyosi seniki,

Tilingda bugun alyor.

Odam o‘g‘li odamzod.

Mikromatnni hosil qilishda **takrorlar** eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog‘lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo‘yoqdorlik hosil qiladi.

E’tibor bering:

Olti oykim, she‘r yozmayman, yuragim zada,

Olti oykim, o‘zgalarga tilayman omad.

Olti oykim, do‘stlarim ham pana-panada

Iste‘dodim so‘nganidan qilar karomat. (A. Oripov)

Erkin Samandar ijodida ham bu usuldan keng foydalanilgan:

Milliard yil ishladi tabiat xolis,

Milliard yil ichida bir tingani yo‘q.

Kunduz va kechalar ter to‘kib xoli

Zahmat chekmoqlikdan eringani yo‘q.

Nuqta-nuqtagacha berdi u tartib,

Bir xoki uvoqdan ziyo taratdi.

Milliard yil mehnatning azobin tortib,

Faqat mening uchun seni yaratdi.

Uning quyidagi she‘rida matndagi gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun bog‘lovchilar va olmosh va olmosh vazifasidagi so‘zlarni takror qo‘llab o‘ziga xos ohang yaratganini kuzatamiz:

Goh kulib tashlar nigoh,

Hajrida o‘rtaydi goh.
Gohi sahar yo‘l poyladim,
Gohi tun voy-voyladim.
Dam meni xon ayladi,
Dam meni qon ayladi.
O‘zi bir tinchgina qiz,
O‘zi bir kichkina qiz!

Takrorning turlaridan biri bo‘lgan parallelizmning ba’zi bir ko‘rinishlari (to‘liq sintaktik konstruktsiyalar faqat ayrim tovush yoki so‘zlar o‘zgarishi bilan takrorlanishi Erkin Samandar she’rlarida anchagina uchraydi.

Mehrim qattiq bo‘ldi,
Qahrim qattiq bo‘ldi.

Tanti o‘g‘il edik, sho‘x bola edik,
Bizlar – kapalag-u hayot – lolazor.
Dunyoda hech kimdan olmasdik hadik,
Dunyoda hech kimga bermasdik ozor.

Misralar boshidagi so‘zlar o‘zgarishi bilan takror zidlantirish ma’nosini kuchaytirish uchun xizmat qildirilgan: *Mehr*. 1. Insonning o‘z tug‘ishganlariga, yaqin kishilariga va umuman odamga bo‘lgan samimiy muhabbati. 2. Shafqat rahmdillik. *Qahr*. 1. Qattiq achchiqlanish holati; g‘azab. 2. *Jabr, zulm*...Demak, ushbu ikki so‘z ma’no jihatdan zid bo‘lsa-da, tovushdoshlik jihatdan bir-biriga hamohang.

She’riyatda misralar takrori juda ko‘p qo‘llanadi. Quyidagi parchada misralar takrori o‘ziga xos vazifani bajaradi.

Fig‘oningga nedur sabab, bulbulim?
To‘yganmikin yo gul nolalaringdan,
Hasrat-u nadomat, volalaringdan,
Yuragim limmo-lim jolalaringdan,
Fig‘oningga nedur sabab, bulbulim?
Ko‘p esa hasrating, qo‘y, to‘kmayin yosh,

*Kelib Erkin Samandar bilan o‘rtoqlash,
Bir g‘uncha deb yer qadar egmagil bosh,
Fig‘oningga nedur sabab, bulbulim.*

Yoki

*Biz zaminni sevolmadik,
Unga loyiq bo‘lolmadik.
Bo‘lsa hamki bargi ko‘rkam,
Sevolmadik daraxtni ham.
Yer ostida ildizlarni,
Yer ustida biz izlarni
Sevolmadik.*

Sevolmadik —

*Anri, notavon Anri,
Umidlari ko‘kka sovrilgan,
Do‘zax o‘tlarida qovrilgan,
Xayot yo‘llarida ovora,
Ko‘zi giryon, dili sadpora,
Umr-umr majruh, nogiron,
Yashin tekkan bechora bir jon – Anri!*

Anri,

*Tug‘ilganda kulib-kulmagan,
Kuni bitib o‘lib-o‘lmagan.
Lekin tugab bitgan armoni,
Shum xayotning tirik qurboni!
Taqdir o‘yinidan to‘ygan,*

Ismini ham unutib qo'ygan – Anri!

Anri!

Distant holatdagi takrorning o'zgarish bilan qo'llanishi ko'p uchramasa-da, ayrim misollar bilan sharhlandi.

Dastlabki misrada qo'shma gap qismlarida ega bo'lib kelgan *peshona* so'zi 1- va 2- shaxs egalik qo'shimchalari bilan takrorlangan bo'lsa, kesim vazifasida kelgan ko'rsatish olmoshi birinchi gapda bog'lama bo'lib kelgan *ekan* to'liqsiz fe'li bilan, ikkinchi gapda xuddi shu vazifadagi *-dir* qo'shimchasi bilan birga qo'llangan.

Takrorda so'z tartibining o'zgarishi tardi aks san'atini yuzaga keltiradi.

*Shunday bemorlar borki,
To'shakda mixlanib yotar benajot,
Uyalib ketasan tuzalganingdan.
Shunday shifokorlar borki,
Tug'ishgan akangday qaraydi senga,
Tuzalib ketasan uyalganingdan...*

Uchinchi misrada *uyalib ketasan* kesim, *tuzalganingdan* uyalishning sababini anglatayotgan bo'lsa, oltinchi misrada tuzalishning sababi uyalish qilib ko'rsatilmoqda. Buning uchun qo'shimchalar o'z o'rnida qolgan holatda *uyalmoq* va *tuzalmoq* fe'llari o'rin almashdi, xolos. Ushbu aks takror xiazmatik konstruktsiyalar yordamida birikishning yorqin misoli hisoblanadi. She'rdagi originallik ikkinchi gapda birinchi gapdagi komponentlarning teskari joydashedir. Bunda yozuvchining asosiy maqsadi ikkinchi gapda berilgan. Quyida takror chiroyli tarzda ifodalangan:

*Madhingiz bitay deb qo'lga olsam soz,
Qo'shiqqa aylanar dilimdagi roz,
Shartmas sizga qilmoq pardozu andoz,
Go'zalsiz, tanhosiz, xushro'y, g'aroyib,
Ajoyibsiz, ajoyibsiz, ajoyib.*

Sokinlikda tugilar KJ'TUIIK, Sokinlikda aytilar ishk xam. Sokin dillar xikmagga tuliii, Sokin kuzlar xamisha kurkam. Uiga aslo chukmaydi gussa, Sevinchlari bular bir dunyo. TSancha azim va chutsur bulsa, Shuncha sokin otsadi daryo.

Ko'ryapmizki, takror ham lingvopoetikada muhim o'rin egallaydi va asar g'oyasini ochib berishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. «Har bir takroriy qo'llangan so'z o'zining yakka holda, ya'ni takrorlanmasdan qo'llanishiga nisbatan yangi ma'no ottenkalariga ega bo'ladi va shu asosda uning semantik doirasi ham yana kengayadi, emotsionallik xususiyati ortadi. Bu esa takrorlash usulining naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi».

O'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tilini o'rganish bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining badiiy asar tilida namoyon bo'lish shakllarini, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini tabora aniqroq tasavvur qilishimizga, shuningdek ularning badiiy adabiyot tilini shakllantirish imkoniyatlari va badiiy estetik ta'sirini kengroq doirada tushunishimizga yordam beradi. Garchi ona tilimizdagi barcha birliklar badiiy adabiyotda tasvir vazifasini bajarsa-da ularning fonografik uslubiy vositalar deb nomlanuvchi katta bir guruhining adabiy asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini batafsil tahlil qilish hali ko'plab tadqiqotlarning yaratilishini taqazo qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, stilistik belgi-xususiyatlar til birliklarining barchasida ma'lum darajada mavjuddir. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar stilistikaning ham predmeti hisoblanadi.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funktsional uslublar orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi.²⁶

Fonetika va stilistika tushunchalariga to'xtalar ekanmiz, avvalo, bu terminlarga ta'rif berib o'tamiz. Fonetika nutq organlarining tovush hosil qilish paytidagi harakati va holati—artikulatsiyani, tovush o'zgarishi qonuniyatlarini, uning intonatsiyasi kabi masalalarni tekshiradi. Stilistika esa til birliklarining ekspressivlik belgisi, ularning nutq uslublariga xoslanish darajasini o'rganadi.

X.Doniyorov va S.Mirzaevlar «So‘z san’ati» deb nomlangan kitoblarida berilgan ta’rif ayni shu o‘rinda o‘rinlidir: «Tildagi o‘shish-o‘zgarishlarni o‘rganishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo‘lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt».²⁷

Fonetik stilistika esa tovushlarning bir-biriga bog‘lanishining ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini, xullas, nutq tovushlarining tilning ta’sirchan vositasi bo‘lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o‘rganadi.

Fonetik stilistika nutqning ta’sirchanligini oshirish vositasi sifatida nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlaridan foydalanish usullari bilan qiziqadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta’sirchanlikni kuchaytirish turlari xilma-xildir. Nutqni emotsional va ifodali qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrorlashning rang-barang ko‘rinishlari muhim rol o‘ynaydi. Narsa va jonivorlarning tovushlariga taqlid qilish hodisasidan ham stilistikada fikrni bo‘rttirib ifodalash va unga ekspressiv tus berish uchun keng foydalaniladi.

Nutqni ta’sirchan qilishning bunday usullarini nasriy va she’riy asarlarda, maqol va matallarda, hatto xalq ertaklari va dostonlarining nasriy yo‘l bilan yozilgan o‘rinlarida ham uchratish mumkin. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg‘unlashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangli va ta’sirli qiladi, til faktini esda saqlab qolishni osonlashtiradi. Nutqni ohangdor qilishning xilma-xil shakl va usullari o‘z tabiati va mohiyati bilan asosan she’riy nutqda xosdir. Poetik nutq ohang jihatidan ma’lum tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. Poeziyada nutqni ohang jihatidan ma’lum tartibga soluvchi vositalarni (masalan, ritm, qofiya, radif, bandlarni) keng qo‘llash xarakterlidir. Shuning uchun she’r tuzilishi fonetik stilistikaning maxsus sohasi sifatida alohida ajralib turadi.

Intonatsiya so‘zlashda ohangning o‘zgarishi – tonning baland-past bo‘lib o‘zgarishi nutq melodikasining o‘zgarishidir. Bunga ritmika - urg‘u va pauzalar

²⁶ Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994

²⁷ Doniyorov X., Mirzaev S. So‘z san’ati.-T:O‘zbekiston, 1962.

haqidagi tushunchalar kiradi. Intonatsiya tushunchasi o'z ichiga nutqning tempini ham oladi. Nutqni fonetik jihatdan shakllantiradigan, bir butun qiladigan intonatsion vositalar-melodika, urg'u va pauzalar, asosan, sintaktik funksiyani bajaradi. Ya'ni sintaktik holatlarni ifodalaydi: gapdagi tugallikni bildirish, gapning ichidagi logik-grammatik bo'linishlarni, qismlarning o'zaro munosabatini ko'rsatish va boshqalar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra fonetikaning intonatsiyaga bag'ishlangan qismi sintaktik fonetika deb yuritiladi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga **fonografik vositalar** yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalardan** foydalanadilar. Fonografik vositalar fonostilistikada o'rganiladi.

Alliteratsiya. Badiiy nutqning ohandorligini va ta'sirchanligini ta'minlashda alliteratsiyaning o'рни beqiyosdir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishiga alliteratsiya deyiladi. Tovushlar zamiridagi musiqiylikka asoslangan bu usul qadimdan Sharq she'riyatida keng qo'llanilib kelingan. Ko'hna badiiyatshunoslik

(«ilmi bade'»)da alliteratsiya «**tavzi**» san'ati» deb yuritilgan. Alliteratsiya deganda Erkin Vohidovning mashhur «q» alliteratsiyali she'ri ko'z oldimizga keladi:

Qaro **q**oshing, **q**alam **q**oshing,
Qiyiq **q**ayrilma **q**oshing **q**iz,
Qilur **q**atlimga **q**asd **q**ayrab –
Qilich **q**otil **q**aroshing, **q**iz.
Qafasda **q**alb **q**ushin **q**iynab,
Qanot **q**oqmoqqa **q**o'ymaysan.
Qarab **q**o'ygil **q**iyo,
Qalbmni **q**izdarsin **q**uyoshing **q**iz.

Bunday usulni shoir Elbek ijodida ham kuzatish mumkin:

Ko'klamda **k**o'karsa **k**o'k **k**o'katlar,
Ko'klarga **k**o'milsa **k**atta-**k**attalar,
Ko'm-**k**o'k **k**o'karib **k**o'rinsa **k**o'llar,
Ko'ngilni **k**o'tarsa **k**o'rkli gullar.

Yoki, Abdulhamid Sulaymon Cho'lponning mashhur «Xalq dengizdir» deb boshlanuvchi she'ri ham alliteratsiyaning go'zal namunalaridan hisoblanadi:

Xalq dengizdir, **x**alq to'liqindir, **x**alq kuchdir,
Xalq isyondir, **x**alq olovdir, **x**alq o'chdir...

Nasrda bu tarzda jumla tuzish badiiy effekt bermasligi mumkin. Shuning uchun nasrda kamdan-kam hollardagina kuzatish mumkin bo'ladi. Bolalar folklorida alliteratsiyaga asoslangan *tez aytish* hamda *aytishmachoq* o'yinlari bor. Tez aytishlar: Bir **tup** **tut**, **tut**ning tagida bir **tup** **turp**. **Tut** **turp**ni turtib turibdimi, **turp** **tut**ni turtib turibdimi? **G**'ani **g**'ildirakni **g**'ildiratdi. **Oq** choynak**ka** **oq** **qopqoq**, **Ko'k** choynak**ka** **ko'k** **qopqoq**. Aytishmachoqda ishtirok etuvchi bolalardan aynan bir xil tovush bilan boshlanadigan gap tuzish talab qilinadi. Boshqa tovush bilan boshlanadigan so'z aralashtirib yuborgan ishtirokchi yutqazgan hisoblanadi va o'yindan chiqadi.

Oftobga qarasam, sevgidan so'zlar,
Kitobga qarasam, sevgidan so'zlar.

Ko‘zingga qarasam, sevgidan so‘zlar,
So‘zingga qarasam, hammasi yolg‘on.
Nozingga qarasam, fitnadan so‘zlar,
Sozingga qarasam, fitnadan so‘zlar.
Labingga qarasam, fitnadan so‘zlar,
Qalbingga qarasam, hammasi yolg‘on.
Qalbim tilsang – til, ammo,
Mendan kulsang – kul, ammo,
Nima qilsang – qil, ammo
Ko‘zingni olib qochma.

Anafora usulida asosan misralar boshida so‘z yoki so‘z birikmasi takrorlanib keladi. Antik dunyo mutafakkirlari gapning doimo bir so‘z bilan boshlanishi nutqqa joziba kiritadi, uning tantanavorligini va hayotiyiligini ta‘minlaydi deb hisoblaganlar. Shuning uchun anaforaga nutqning bezagi, tashqi belgisi deb emas, balki ma‘noni kuchaytiruvchi vosita deb ham qarash kerak.²⁸

Misralar boshida so‘z va so‘z birikmasi bilan bir qatorda bo‘g‘inlar va tovushlar ham takrorlanib kelgani va o‘ziga xos uslubiy vosita vazifasini bajarib kelgani uchun biz shoir ijodida uchraydigan bu vositaga to‘xtalib o‘tdik.

Hali kimlarnidir maqtamoq kerak,

Hali xudochalar yasamoq kerak,

Hali payg‘ambarlar yasamoq kerak,

Hali avliyolar yasamoq kerak.

Bir tovush bilan boshlanuvchi aynan bir xil so‘zlarni misra boshida keltirish shoir ijodida juda ko‘p kuzatiladi:

Bir kun fazilating olsam qalamga,

Bir kun qabihliging yoygum olamga.

Bir kun ko‘z yoshlaring qog‘ozimdadir,

Bir kun zaharxandang ovozimdir.

²⁸ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994. 57-b.

Bir kun o'tmishindan faryod solurman,

Bir kun iqbolindan o'yga tolurman.

Yuksaklikda jon bersa agar,

Yuksaklikka ko'milar odam.

Yoki

Kimdir topdi nomsiz cho'qqini.

Kimdir tunda taratdi ziyo.

Tirik bo'lsam, sevgim ham tirik,

Tirik bo'lsam, unutilar g'am.

Shoir ohangdorlik va mazmunni go'zal qilish uchun bir she'rning o'zida undalmalar va antonim so'zlar va bog'lovchilardan ham foydalanadi:

Amudaryo, mangu daryosan,

Hovuch-hovuch yog'du daryosan.

Gohi mayin, sokin-u yuvosh,

Gohi o'jar, tanti va bevosh,

Tulqinlari ufqda tutash,

Sevinch daryo, qayg'u daryosan.

Epifora. Jumla oxirida tovushlarning, so'zlarning, so'z birikmalarining takrorlanishi epiforadir.

Xiva bu, gumbaz, minora, naqsh-u nuqra shahri bu,

Tokchada qolgan kitoblar – odamiylik sharhi bu,

Pahlavon Mahmud so'zin yod oldi Mashriq, Mag'rib-u,

Mashriq-u Mag'ribda mashhur o'lkaning farzandiman.

She'riy asarlarda so'zlar yoki misralar oxirida ifodalilikni kuchaytirish uchun ayrim unli yoki undosh tovush (ba'zan birikma) takrorlanadi. Bu kabi so'z oxirida unli yoki undosh tovushning takrorlanishiga epifora yoki tovush konsovkasi deyiladi.²⁹

Yonboshlab gazeta varaqlaydi chol,

To'polon chiqibdi zavod, Vuzdami.

Kampiri yupatar surgancha xayol:

-O'ylamang, janjal ham faqat bizdami?!

Xulosa qilib aytganimizda fonetik vositalar adabiy asarni shakllantiruvchi til birliklari va ularni qo'llashning uzviy qismi sifatida badiiy uslubning boshqa funktsional uslublar orasida o'ziga xos o'rnini borligini aniq ko'rsatib tura oladigan lingvoestetik omillardan sanaladi.

Bu vositalar ko'z oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik uslubiy rang-barangligini badiiy adabiyot orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Buni birinchi navbatda, badiiy matnda ko'pchilik so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilib, ularning semantik ma'nosida kengayish ro'y bera borishida kuzatamiz. Ya'ni, adabiy asar tili shu vositalar yordamida umumxalq tilining eng nozik jihatlarini ham yuzaga chiqara oladigan maydonga aylanishi mumkin.

So'zlar, umuman til birliklari bunda g'ayriodatiy qurilishlarda qo'llanilib, masalan, ma'nolar bir-biriga zid, yoki aksincha, ma'nolari bir-biriga yaqin ifodalar qarama-qarshi tarzda ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi. Bu narsa, o'z navbatida, troplarning ham, uslubiy figuralarning ham badiiy uslubdagi alohida mavqesini belgilaydi.

Nutqda fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarish maqsadida qo'llanilishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsulidir. Ya'ni bu vositalarning til birliklarini badiiy-estetik maqsadga xizmat qildirishga bo'ysundirishi, shu yo'lda ayrimlarining badiiy uslubga xoslanishi ularning bu uslubdagi o'rnini yana ham mustahkamlaydi.

²⁹ Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriyl vositalari. Toshkent, 1977. 132-132-betlar.

O'zbek badiiyati, xususan she'riyatida san'atlarning yuzlab ko'rinishlari mavjud bo'lishi, birinchidan, o'zbek badiiy uslubining ildizlari qadimiy ekanligidan, uning shakllanganligiga ko'p asrlar o'tganligidan dalolat bersa, ikkinchidan, ular ona tilimizning, jumladan, badiiy nutqning yuksak ma'naviy-badiiy-estetik fazilatlarini, mukammalligi va kamolotidan guvohlik beruvchi omillardir.

2.2. Erkin Samandar she'rlarida okkazionalizmlarning ishlatilishi

Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo yangi so'z yasashga intilib keldilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so'zning tasviriy imkoniyatidan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g'ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati ijodkorlarni ana shunday yo'l tutishga undaydi». Ana shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo'lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan yasalmalar, favqulodda o'zgacha qo'llashlar – okkazionalizmlar vujudga keladi.

Erkin Samandar she'rlarida okkazionalizmlar hosil bo'lish usuliga ko'ra ikki katta guruhga bo'lib o'rganildi:

1. Affiksatsiya usulida hosil qilingan okkazionalizmlar. Bunday okkazionalizmlar shaxs oti yasovchi qo'shimchalar ishtirokida hamda o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar ishtirokida hosil qilingan okkazionalizmlarga ajratildi. Shaxs oti yasovchi qo'shimchalar ishtirokida hosil qilingan *otdosh*, *so'zboz*, *navro'zfurush*, *bulbulvachcha*, *shoirvachcha*; o'rin-joy oti yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan *Quyoshiston*, *chamanistoi*, *novvotzor* kabi okkazionalizmlarning she'rdagi badiiy vazifasi, ularning yasalishidagi mantiqiylikni tahlil etish muhim. Ushbu she'riy parchada ham okkazionalizm mavjud:

Men seni gul deyinmi, sochi sunbul deyinmi,
Ovozlari yoqimli, o'zing bulbul deyinmi?
Qo'lingni bergil, hoy gul, husnu chiroyga boy gul,
Ey nozanin **boqishlim**, dildan joy olgan Oygul.

2. So'z birikmasini qisqartirish, soddalashtirish orqali hosil qilingan okkazionalizmlar. Bunday okkazionalizmlar sifatida *ko'shiqqirqar*, *bog'chaxotin*,

bog'chaxola, kabi yasalmalar tadqiq qilindi. Shu bilan birga, ba'zi okkazionalizmlar ularga ma'nodosh bo'la oluvchi boshqa ijodkorlarning she'rlaridan keltirilgan yasalmalar, tilimizda mavjud lug'aviy birliklarga qiyoslandi, Jumladan, *ko'shiqqirqar* okkazionalizmi *qo'shiqtarosh* yasalmasi bilan, *bog'chaxotin*, *bogchaxola* yasalmalari *bog'cha opa* qo'shma so'zi bilan solishtirilib, ular orasidagi ma'no farqi ko'rsatib o'tildi. *Ko'shiqqirqar* okkazionalizmi unga to'liq ma'nodosh bo'la oladigan *qo'shiqtarosh* yasalmasi bilan bir xil ma'noni ifodalayotgan bo'lsa ham, *qo'shiqqirqar* okkazionalizmi qismlari tarkiblanishiga ko'ra o'z qatlamga, *qo'shiqtarosh* so'zi qismlari esa o'z qatlam+o'zlashgan qatlamga (tarosh - f.t. kesish, yo'nish, tarashlash) tegishli. Ikkinchidan, *qo'shiqqirqar* okkazionalizmida tovushdoshlik kuchliroq (birinchi va ikkinchi qismda ikki martadan jami to'rt marta «q» tovushi takrorlanadi, *qo'shiqtarosh* esa ikkala qismda bir martadan «sh» tovushi qo'llanadi) ifodalangan. Yoki *kulko'rpa* okkazionalizmi haqida quyidagi fikrlarni aytish mumkin: ayrim okkazional so'zlar yasovchi asosni sinonimik va antonimik munosabatlardagi so'z bilan almashtirish tufayli ham yuzaga keladi. Masalan, *to'g'rigo'y* (*rostgo'y*), *yolg'ongo'y*, *bo'shqadam* (*peshqadam*) yasalmalarida ushbu holatni kuzatish mumkin. *Kulko'rpa* yasalmasi, fikrimizcha, *gulko'rpa* qo'shma so'ziga ham qofiyadosh, ham yasovchi asos antiteza munosabatidagi so'z bilan almashgan (Solishtiring: *gul* (yashnamoqlik ramzi)- *kul* (kuyib xarob bo'lmoqlik ramzi)).

Shoir she'rlarida *sifatlovchi+sifatlanmish* tipidagi yasalmalar ko'proq uchraydi. E'tibor qilinsa, bu yasalmalar asosan *ot+ot* tipida bo'lib, qo'shma so'z holida sifatga aylangan hamda predmet yoki shaxsning belgisini bildirgan: *oyqaboq go'zal* kabi birikmalarda o'ziga xos tasvir chizgilarini yuzaga keltirgan. Shu o'rinda keltirilgan okkazionalizmlar uchun tana a'zolarining nomlari asos bo'lganligini, yasalmalarning birinchi qismi esa ularning belgisini bildiruvchi so'zga aylanganligini ko'ramiz. Bu fikr *temiroyoq*, *ko'miroyoq*, *bulbulzabon*, *tillobarmoq*, *yolg'izbosh*, *yo'lbarsyurak*, *sirtlonpanja*, *shertirnoq* yasalmalariga ham tegishlidir.

2.3. Erkin Samandar she'rlarida shevaga xos so'zlarning uslubiy xususiyatlari

Erkin Samandar she'riyat bo'stonining eng yorqin, zabardast va sermahsul ijodkorlaridan biri desak, hech adashmagan bo'lamiz. Uning har bir satrlari o'z ichki dunyosiga yo'l ochadi, ko'ngil sirlaridan kuylaydi. Shoir ijodi har bir yurakni to'lqinlantirib, dil toridan taralgan misralari insonga o'zgacha ruh, tarovat bag'ishlaydi.

Erkin Samandar so'zni qadrllovchi shoir ekanligini ko'ngil mahzanidan to'kilgan ijod mahsulidan anglab olish qiyin emas. Uning qalamining qudrati va so'z tanlash mahorati ham yillar osha sayqallanib borganligini shoir *“Mubolag'a emas, ellik yoshning roppa-rosa qirq yili so'z tanish, so'z izlash va so'z topish, soz tinglash va so'z axtarish bilan o'tdi. O'zimga notanish bo'lgan so'zning mag'zini chaqqanimda, ohorli so'z nodir qushdek oq qog'ozga qo'nib, misralarga jon ato etganida, quloqqa yoqimli soz ketiga tushib, sehrli gulshanlarni sayr aylaganimda, har gul, har yaproqda go'zallik kashf etganimda naqadar quvonganlarimni bir ko'nglim biladi”*, deya eslaydi.

Darhaqiqat, u qo'llagan so'zlar ham o'qilishi oson, talaffuzi ravon, xalq tiliga yaqin. Ayni damda uning ijodida foydalanilgan ayrim she'vaga xos bo'lgan so'zlarni tahlil qilamiz. Masalan, “Go'zal” she'rida quyidagi so'zlarni kuzatish mumkin:

Hilpirardi boshda **dudori**.

Ushbu misralarda keltirilgan **dudor** so'zi *ayollar boshiga taqadigan bezak ashyosi, taqinchoq* ma'nosini anglatadi.

Yonar edi qo'lida **xino**,

Matir ro'mol egnida uyqash.

Bu yerda **matir** so'zi *to'r qilib to'qilgan, to'rli ro'mol* ma'nosini anglatmoqda.

“Osmon” she'rida esa quyidagilarni kuzatish mumkin:

Sovuq keldi bu qish g'oyat,

Bulut oftob ko'zin to'sdi.

*Adoq bo'ldi sazoq, poya*³⁰,

Va yirtildi yamoq po'stin.

Ushbu o'rinda bir misraning o'zini tashkil qilgan dialektik elementlarni ko'rish mumkin.

Adoq bo'ldi — *tugadi, tamom bo'ldi*

Sazoq — *sahroda o'sadigan saksovul*

Poya — *g'o'zapoya ma'nosida qo'llangan.*

Chiqdi yosh-u keksa biz bormiz, dedi,

Selni daf etmoqqa tayyormiz, dedi.

Har egatdan muzni terdi donalab,

Har *otiz*ni do'l-u seldan tozalab.

Bu yerda *otiz* so'zi *hosil dalasi* ma'nosida qo'llangan.

...*Gurvagidan* totgan odambir karra,

Xush bo'yi-yu sharbatidan bo'lar mast...

Quyosh nurin shimib yotgan *gulobi*,

Lazzatlidir go'yo gurji sharobi.

Gurvak, *gulobi* bular Xorazmning dongdor *qovun turlaridan* biridir.

Birichi bor yig'ladi Davdon,

O'z ko'zida yosh ko'rdi xunli.

Va ko'rdiki, *saqanqur* ekan,

Isfandiyor saroyda *ulli*.

Bunda *saqanqur* — *zaharli echkamar* ma'nosini anglatadi.

Chorjo'ydan chiqadi bir kema *ulli*...

Ushbu misradagi *ulli* — *yoshi ulug'*, *katta* ma'nosida qo'llangan.

“O'zimizning Nasriddin” she'rida esa quyidagi dialektik elementlarni qo'llagan:

Osh damlasa, *duvoqqacha* moy bo'lar,

Mo'yloviga bir qop guruch joy bo'lar.

Bu yerda *duvoq* — *qozonning qopqog'i* ma'nosida

Buvalarin qoni bor-da qonida,

³⁰ O'sha kitob Nazm yulduzlari she'ri 108-bet

Barak tortdi dastyor chinni laganda.

Bu yerda **barak** — *chuchvara* ma'nosida

“Daryo beg‘araz” she’rida quyidagi so‘zni keltirgan:

Kemachi o‘rtaga dasturxon yoyar,

Me’mor **juyan ko‘moch** tayyorlagan choq.

Ushbu misralarda **juyan**— *jo‘xori* , **ko‘moch** — *kulga ko‘milgan non* ma'nosini beryapti.

Bugun yana bordim. Tek turdim,

Kulib boqmadi ostonangiz.

Ikkinchi qavatda turar jim,

Yuzga parda tortib **oynangiz**.

Bu yerda **oyna** so‘zi *deraza* ma'nosida qo‘llangan.

“**Ichanqal’adagi tuya**” she’rida quyidagi so‘z izohlangan:

Kuladilar, kulishadilar,

Ketadilar, kelishadilar.

Kun oxirlab qolar shu yo‘sin,

Eng qizig‘i boshlanar **o‘sin**.

Bu so‘z ,ya’ni **o‘sin** so‘zi *shundan so‘ng, keyin* degan ma’`nolarni anglatadi.

Jangal bilan urgil qichitib,

Haydab tushir taxtdan chayonni.

Jangal bu yerda *tikanli o‘t* ma'nosida ishlatilgan.

Dikmalikdin, qo‘rslikdin ne sud,

Ushu so‘z *tiklik, bo‘yin egmaslik* ma'nosida qo‘llangan.

Bir o‘t ko‘rar qorachug‘ida,

Demak, shoir xayoli **yoxti**.

Yangi o‘tlar ko‘karmoqqa shay,

Shoirlarning orzu daraxti.

Ushbu misralardagi **yoxti** so‘zi *yorug‘lik, nur, ziyo* ma'nosini anglatmoqda.

Demak, biz Erkin Samandar ijodini o‘rganar ekanmiz, uning so‘z qo‘llashdagi mahorati, qanchalik boy tajribaga ega ekanligini anglash qiyin emas. Tahlil qilgan

soʻzlarimiz Xorazm shevasiga xos soʻzlardir. Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, shoir sheʼrlari qaysi mavzuda boʻlishidan qatʼiy nazar, u inson mohiyati, uning ichki his-tuygʻularini baralla dildan madh etadi, kuylaydi.

UMUMIY XULOSALAR

1. Badiiy asar g'oyasining ilmiy talqini ko'p jihatdan asar tilini tahlil etishga bog'liq. Adabiyotimizda iz qoldirgan har bir ijodkor asarlarining tilini tahlil etish, birinchidan, adib mahoratini o'rganish, shu bilan birga, adabiy tilimiz rivojiga uning asarlari tilining qay darajada ta'sir ko'rsatayotganligini belgilash ehtiyojidan kelib chiqadi.

2. Erkin Samandar she'rlardagi ta'sirchanlikni oshirish, misralarning o'ziga xosligini ta'minlash maqsadida antitezadan, shu bilan birga, o'zbek tili sinonimik imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalana olgan. Sinonimik imkoniyatlarni qo'llash natijasida o'rinsiz takrorga yo'l qo'yilmagan.

3. Erkin Samandar boshqa ijodkorlar kabi, she'rlarida xalq maqollari va iboralardan unumli foydalangan. Maqollar va iboralar she'riyat yoki uslubiyat talabi bilan ijodiy tarzda ko'llangan. Maqollar va iboralarning leksik yoki grammatik jihatdan o'zgartirilganligi she'rda o'ynoqilik, ta'sirchanlik kabi xususiyatlarni ta'minlagan.

4. Shoir tasviriy ma'noga va emotsional bo'yokqa ega bo'lgan iboralardan unumli foydalangan. Shu bilan birga, ba'zi maqol va iboralarning ma'nosi boyitilib, ayrim iboralarning emotsional-ekspressiv bo'yoqlari kuchaytirilgan. Xalq maqollari va iboralari ta'sirida shoir tomonidan «kashf etilgan» aforizmlar, hikmatli so'zlar ko'p uchraydi. Bunday barqaror birliklar she'rlarning ta'sirchanligi, ohangdorligi hamda badiiy va estetik jihatdan salmoqdorligining oshishini taminlagan.

5. Takror Erkin Samandar she'rlarida yetakchi sintaktik figura darajasiga ko'tarilgan bo'lib, u she'rda ta'kid, iltimos, o'tinch, so'roq, sanash ma'nolarini kuchaytirish, darajalash, mubolag'ani bo'rttirish, tasvirni yanada teranlashtirish, qiyoslash kabi turli vazifalarni ado etadi. Takrorlar misralarda joylashuvi hamda qaytarilish soniga ko'ra turlicha bo'lib, ular kontakt holatda va distant holatda qo'llangan.

Erkin Samandar she'rlaridagi takrorlar boshqa shoirlar, she'rlaridagi takrorlar bilan qiyoslab o'rganilganda, ularda ayrim o'xshash holatlar mavjud

ekanligi ko‘rinadi. Takrorlar grammatik hamda so‘z tartibi jihatdan o‘zgarishga uchraganda, turli xil ma‘no qirralarini namoyon etgan; takrordagi grammatik o‘zgarishlar ma‘nodagi nozik farqlanishni yuzaga keltirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, she‘riy tizim talabi bilan vaznni saqlab qolish maqsadida qo‘llangan.

6. Til jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi ekan, ma‘lum ma‘noda Erkin Samandar she‘rlari ham hozirgi tilimiz imkoniyatlari, uning nozik ma‘no qirralarini namoyish eta oldi. Bu imkoniyatlar turli vositalar, jumladan, so‘zni mohirona qo‘llash, yangi birliklar hosil qilish, xalq tilidan ijodiy foydalanish va boshqalar orqali uning she‘rlarida o‘z aksini topdi. Xususan, shoir she‘rlaridagi yangi yasalmalar – okkazonalizmlar o‘ziga xos va o‘ziga mos tarzda qo‘llandiki, bu yasalmalar o‘zining g‘ayriodatiyligidan tashqari, obrazlilikni yaqqol ta‘minlaganligi tufayli ham o‘quvchi tasavvurini boyitishga, she‘r mazmunini chuqurroq anglashiga xizmat qildi.

8. Erkin Samandar she‘rlaridagi okkazonalizmlar ikki xil yo‘l bilan, ya‘ni yasovchi qo‘shimchalar yordamida hamda so‘zlarni qo‘shish yordamida hosil qilingan bo‘lib, ularda tilimizning ichki imkoniyatlari kengligi aks etgan. Bunday yasalmalar so‘z yasaliishi talablariga muvofiqlik va nomuvofiqlik oppozitsiyasi asosida yuzaga kelgan.

9. Erkin Samandar she‘rlaridagi okkazonalizmlar atributiv birikmadagi hokim bo‘lakning tushirib qoldirilishi, tobe qismning otlashuvi natijasida vujudga keltirilgan. Ayrim okkazonalizmlar esa so‘z birikmasini qisqartirish, soddalashtirish orqali yaratilgan.

Qaratqich+qaralmish tipidagi birikmalar qo‘shma so‘zga aylantirilgan holatlarni ham kuzatish mumkin. Qo‘shma okkazonal birliklar hosil qilish shoir ijodida juda ko‘p uchraydi. Bular orasida *sifatlovchi+sifatlanmish* tipidagi yasalmalar ko‘proq uchraydi. Bu so‘z yasaliishlar asosan *ot+ot* qolipida bo‘lib, qo‘shma so‘z holida sifatga aylangan.

10. Yangi yasalmalar ommalashib ketmagan taqdirda ham, uning shu matnda ta‘siri bo‘lishi shubhasiz. Negaki, u hissiyotni yangicha tarzda ifodalaydi, yangi ma‘no aks ettiradi. Erkin Samandar she‘rlaridagi okkazonalizmlar ham yangi

semantik ottenkalarining paydo bo'lishiga asos yaratib, matnda ma'lum bir stilistik vazifani bajarishga xizmat qilgan.

11. Erkin Samandar okkazionalizmlarining ko'pchilik qismi o'z qatlamga tegishli birliklardir. Okkazionalizmlarning qo'llanishi alliteratsiya, tarse' kabi badiiy san'atlarning chiroyli namunalarini yuzaga keltirishda alohida o'rin tutadi.

12. Erkin Samandar she'rlarini lingvopoetik jihatdan tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, shoir she'rlarida lisoniy vositalardan mohirona foydalangan va o'ziga xos, original uslubni yarata olgan. Bu, xususan, uning she'rlari tilida yaqqol ko'zga tashlanadi, shu sababli Erkin Samandarni o'zbek adabiy tilini, jumladan, poetik nutqni boyitishda muayyan iz qoldirgan shoir sifatida baholash mumkin, degan xulosaga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev A. «Navoiy » romani tilining ba'zi xususiyatlari // Sovet maktabi, 1963, 6-son. 31-34-betlar.
2. Abdurahmonov Sh.O'zbek badiiy nutqida kulgi qo'zg'atuvchi lisoniy vositalar, NDA.- Toshkent, 199 5-14-b.
3. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So'z estetikasi.- Toshkent: Fan, 1981. 5-22-b.
4. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin.- Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 197
5. Aristotel. Poetika (poeziya san'ati haqida).- Toshkent: F.Fulom nomidagi adabiyot va san'at nashr., 1980. 5-58-betlar.
6. Begmatov E. O'zbek tili leksikasining ijtimoiy tarixiy asoslari // O'zbek tili leksikologiyasi.- Toshkent: Fan, 1981. 41-152-betlar.
7. Bobojonov F. O'zbek jadid dramalarining lisoniy xususiyatlari (Behbudiy va Aloniy dramalari asosida), NDA.- Samarqand, 2002. 5-20-b.
8. Cho'lpon. Adabiyot nadir.- Toshkent: O'qituvchi, 199 145-155-b.
9. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. – Toshkent: Fan, 1987 8-91-b.
10. Eshonqulova R. P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida harbiy leksika// Hozirgi davr – til va adabiyot masalalari, 2-qism.- Samarqand: SamDU nashri, 2001.103-107-betlar.
11. Fitrat A.Adabiyot qoidalari.-Toshkent:O'qituvchi,1998-29-b.
12. Fitrat A.Chin sevish.- Toshkent: O'qituvchi, 199 237-252-b.
13. Hakimov D. Hozirgi o'zbek tilida islomiy leksika// O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 5-son. 64-68-betlar.
14. Imomova G. Tipik milliy xarakterlar yaratishda badiiy nutqning roli, NDA. - Toshkent, 1993. 5-18-b.
15. Jalolova L. Abdulla Qodiriy asarlaridagi jonlantirishning lingvopoetik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti, 2000, 4-son. 33-35-betlar.
16. Karimov S. Badiiy matnning uslubiy alomatlari.- Samarqand: SamDU nashri,

1992. 6-31-b.

17. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda-tasvir vositalari.- Samarqand: SamDU nashri, 199 11-32-b.

18. Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi.- Samarqand: Zarafshon, 1992. 12-28-betlar.

19. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat.- Toshkent: Fan, 1982.

20. Keldiyorova G. Erkin Vohidov she’riyatida antiteza // O‘zbek tili va adabiyoti, 2000, 1-son. 51-54-b.

21. Mahmudov N. Abdulla Qahhor hikoyalarining lingvopoetikasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 1985, 6-son. 48-51-b.

22. Mamajonov S. G‘afur G‘ulom prozasi.- Toshkent: Fan, 196 163-178-b.

23. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o‘zbek she’riyatining lingvopoetik tadqiqi, NDA.- Toshkent, 2004, 6-18-b.

24. Normurodov R. Shukur Xolmirzayevning metaforadan foydalanish mahorati // O‘zbek tili va adabiyoti, 2002, 6-son. 68-69-b.

25. Normurodov R. Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati.- Toshkent: Fan,2003. 8-49-b.

26. Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan, 1981.

27. Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi.- Toshkent:Fan, 1981. 155-187-b.

28. Nurmatov A.N. Badiiy asarda polifonizm, NDA.- Samarqand, 199

29. Erkin Samandar. Qo‘ymadingiz, qo‘ymadingiz. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1992.– B.448.

30. O‘zbek tarixiy romanlari // Sharq yulduzi, 1980, 7-son. 193-216-betlar.

31. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981.

32. Oxunov N. Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 198

33. Oybek. Mukammal asarlar to‘plami, yigirma tomlik, XIV tom.- Toshkent: Fan, 197 107-179-betlar.

34. Samandar E. Sevgi fasllari. Saylanma. – Toshkent, G‘afur G‘ulom, 1987.–

248 b.

35. Samandar E. Yurakka yo'l. Toshkent.: Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990. - B. 17.
36. Samandar E. Hazrati Polvon pir (qasida) Urganch. Xorazm. 1995. -B. 45.
37. Samandar E. Suyanch. To'plam. Xiva. Xorazm Ma'mun akademiyasi nashri. 2000.
38. Samandar E. Daryosini yo'qotgan qirg'oq. Toshkent.: Yosh gvardiya. 1989. -B. 318.
39. Samandarov E. Tangri qudug'i. "Kamalak" - "Xazina". T.: 1996.- B.395.
40. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari.- Toshkent: Fan, 1982. 5-33-b.
41. Qilichev E. O'zbek tili onomastikasi. – Buxoro: Buxoro DU nashri, 200
42. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi.- Toshkent: ToshDU nashri, 197 47-76-b.
43. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining ifoda-tasvir vositalari.- Toshkent: Fan, 197 9-81-b.
44. Qodirov M. Badiiy asar tilini o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti, 1987, 3-son. 41-44-b.
45. Qodirov P. O'ylar.- Toshkent: Adabiyot va san'at nashr., 1971.
46. Qodirov P. Til va el (temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 200-248 b.
47. Qodirov P. Til va el (temuriylar davridagi mumtoz adabiy tilimiz muammolari). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 200-248 b.
48. Qodirov P.Xalq tili va realistik proza.- Toshkent: Fan, 1973. 21-44-b.
49. Qurbonov T. P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanida leksik qatlamlarning berilishi.// Hozirgi davr – til va adabiyot masalalari, 2-qism.- Samarqand: SamDU nashri, 2001.76-86-betlar.

50. Qurbonov T., Eshonqulova R. Pirimqul Qodirovning « Yulduzli tunlar» romanida toponimlarning berilishi // Hozirgi davr – til va adabiyot masalalari, 1-qism.- Samarqand: SamDU nashri,2002. 68-73-betlar.
51. Qurbonov T., Yunusova B. Tarixiy asar va arabcha, fors-tojikcha qatlam// O‘zbek filologiyasi masalalari, 3- chiqishi - Samarqand: SamDU nashri, 2001.61-64-betlar.
52. Rahimov Z. Muallif nutqi va uning ko‘rinishlari // Til va adabiyot ta’limi, 2000, 3-son. 58-62-b.
53. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo‘yicha mulohazalar // O‘zbek tili va adabiyoti, 2003, 2-son. 84-86-b.
54. Ro‘zimuhammad B. Til – asarning tanasi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1997 yil 5-dekabr, 49-son.
55. Samadov Q.Oybekning til mahorati.- Toshkent: Fan,1981.7-21-betlar.
56. Sharafiddinov O. Adabiyot tildan boshlanadi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 1986 yil 5 sentyabr, 36-son.
57. Solijonov Y. Badiiy asarda monologik nutq // O‘zbek tili va adabiyoti, 2004, 3-son. 16-20-b.
58. Solijonov Y. Dialog va uning badiiy asardagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti, 2002, 4-son. 7-11-b.
59. Solijonov Y. Nutq va uslub.- Toshkent Fan, 2002. 11-63-b.
60. Solijonov Y., Mo‘minov S. Badiiy asarlarda ismning ayrim funksiyalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 1984, 2-son. 44-490betlar.
61. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir.- Toshkent: Fan, 1973. 92-115-b.
62. To‘rabekova S. Til va uslub.- Toshkent:Fan, 1963. 28-48-b.
63. Umurov H. Badiiy nutq nazariyasi.- Samarqand, 2003. 5-50-b.
64. Umurov X.,Nosirov A. «Yulduzli tunlar » va adabiy tanqid.- Samarqand: Zarafshon, 2002.
65. Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi.- Samarqand: SamDU nashri, 1982. 5-27-b.
66. Yo‘ldoshev B. va boshqalar. Badiiy asar tili masalalari.- Navoiy: Navoiy

DPI nashri. 2001, 15-20-b.

67. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari.- Toshkent: Ma'na-viyat, 2002. 12-63-b.
68. Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati (« Kecha va kunduz» romani misolida), nomzodlik dissertasiyasi avtoreferati.- Toshkent, 2000.
69. Yo'ldoshev M. Cho'lponning xalq iboralaridan foydalanishdagi mahorati // O'zbek tili va adabiyoti, 1999, 6-son. 59-61-b.
70. Zayniddinova A. Badiiy asarda fakt va to'qima.- Toshkent: O'zbekiston, 1980.
71. Ziyoyev T. Badiiy asarda tarixiy va to'qima obrazlarning munosabatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1985, 2-son. 52-54-betlar.
72. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent, 1994.
73. Normurodov R. Shukur Xolmirzaev asarlarining til xususiyatlari.: Filol. fan. nomzodi... dis. avtoref.-T., 2000.-25 b.
74. Muhammadjonova G. 80- yillar oxiri 90- yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. nomzodya... dis. - T., 2003. -136 b.
75. Vohidov E. Ishq savdosi. -T.: Sharq, 2000. - B.69.
76. Qo'ng'urov R. O'zbek tiliing tasviriy vositalari. -T.: Fan, 1977. -B. 142-143.
77. O'TIL, T. I. B. 462.
78. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va lingvopoetik tahlili asoslari.-T.: Fan, 2007 B. 31